جدید

Tilda, fikrda, ishda birlik!

Jadid

2024-yil
26-aprel
№ 18(18)

adabiy, ilmiy-ma’rifiy va ijtimoiy haftalik gazeta

TAASSUROT

MARDLARNING AVLODI MARD BO‘LAJAK!



Bir paytlar Chingizxonday yovqur sarkardaning xayolini rom etgan ko‘hna Xorazm uzra hamonki, sulton Jaloliddin zafariyatining tug‘i hilpiraydi. Urganch shahri markazida Manguberdining mahobatli haykali barpo etilib, uning nomi bilan ataladigan harbiy-akademik litsey tashkil qilingani mislsiz jasorat va yengib bo‘lmas qudrat ramzidir, aslida.

Yaqinda muhtaram Prezidentimiz Xorazm viloyatiga tashrifi doirasida Urganch shahridagi Jaloliddin Manguberdi nomli harbiy-akademik litsey faoliyati bilan yaqindan tanishib, o‘quvchilarning qalbiga vatanparvarlik g‘oyalarini chuqur singdirish, ularning orzu-intilishlari, qobiliyat va salohiyatini ro‘yobga chiqarish va huquqiy bilimlarini oshirishga mo‘ljallangan ma’naviy-ma’rifiy tadbirlarni tizimli ravishda tashkil qilish bo‘yicha topshiriqlar bergan edi.

Shunga asosan yaqinda bir guruh taniqli ijodkorlar, teatr va kino aktyorlari hamda ma’naviyat targ‘ibotchilari safida ushbu maskanda bo‘ldik.

Biz dastlab ulug‘ sarkarda Jaloliddin Manguberdining Urganch shahrida qad rostlagan mahobatli haykaliga hurmat bajo keltirish maqsadida hududiga 18 mingga yaqin manzarali daraxtlar, gul va butalar ekilgan ko‘rkam memorial bog‘ga keldik. Harbiy orkestrning “Jaloliddin Manguberdi” marshi sadolari ostida haykal tomon yurar ekanmiz, maydonda mag‘rur hilpirayotgan O‘zbekiston bayrog‘i va bo‘yi-bastiga harbiy libosi yarashgan alp yigitlarning saf tortib turganini ko‘rib yuragimizda quvonch va shukronalik tuyg‘ulari jo‘sh urdi.


Shu asnoda muhtaram Prezidentimizning “Chaqmoqdek qisqa umri mobaynida o‘zbek xalqiga xos bo‘lgan Vatanga cheksiz muhabbat va sadoqat, yuksak harbiy salohiyatini namoyon etib yashagan Jaloliddin Manguberdi kabi buyuk ajdodlarimiz bilan har qancha faxrlansak, g‘ururlansak arziydi. Ishonaman, oradan yillar, asrlar o‘tadi, Sulton Jaloliddin hamisha yurtimizni ko‘z qorachig‘idek asrab-avaylash, unga farzandlik mehri, iymon-e’tiqod bilan xizmat qilishning o‘chmas timsoli bo‘lib qoladi”, – degan so‘zlari yodimizga tushdi.

Jaloliddin Manguberdi nomidagi harbiy-akademik litseyning muhtasham binosida yaratilgan shart-sharoitlar bilan yaqindan tanisharkanmiz, mazkur o‘quv maskani haqiqatan ham buyuk lashkarboshiga xos kamolot qasri bo‘lib yoshlarni o‘z bag‘riga olganiga ishonch hosil qildik. 300 o‘ringa mo‘ljallangan harbiy-akademik litseyda 2023-2024-o‘quv yilida sinovlardan muvaffaqiyatli o‘tgan 150 nafar o‘quvchi ta’lim olishmoqda. Dastlab muassasa rahbari, polkovnik Ixtiyor Saidov mehmonlarga litsey faoliyati haqida atroflicha ma’lumot berdi. Xususan, 1,5 gektar maydonda joylashgan ushbu o‘quv dargohida yoshlarga har tomonlama yetuk ta’lim-tarbiya berish uchun eng zamonaviy sharoitlar yaratilgan. Bu yerda matematika va fizika, ingliz tili fanlari chuqurlashtirilgan tarzda o‘qitiladi. Litseyda 13 nafar oliy va 10 nafar birinchi toifali o‘qituvchilar, 12 nafar harbiy xizmatchilar – ofitser va serjantlar faoliyat yuritmoqda.

Zamonaviy axborot-resurs markazida bizni kutubxonachi Inobat Rahimova kutib oldi.

(Davomi 2-sahifada).

BUGUN – O‘ZBEKISTON XALQ ARTISTI BOTIR ZOKIROV TUG‘ILGAN KUN



BULBULGA BIR GAPIM BOR

**Qadim O‘zbekmomo kuyi yodimda,
Yodimda chechaklar kulgan Chambili.
Har gal konsertiga kirgan chog‘imda
Yaltiroq choponli “Yalla” ansamblin,
Botir Zokirovni o‘ylayveraman.**

**Qizlar qarsak chalar – ta’sir shunaqa,
Qizlar hushtak chalar – asr shunaqa.
“Yalla” zalga sochib sumalak isin
Kuylar “Boychechagim – boylandi”sini,
Botir Zokirovni o‘ylayveraman.**

**Goh chiqib ketaman, sezmaydi birov,
Bu joylarda meni kim ham taniydi.
Og‘aynilar, men ham dunyoda bir kun
Bitta qo‘shiq aytib o‘lsam mayliydi...
Botir Zokirovni o‘ylayveraman.**

**Ziyrak qorovul chol to‘sar yo‘limni,
Xo‘rsinar. Jim siqib qo‘yar qo‘limni.
Hech qanday ansambl ovuta olmas
Bu kun rayhon hidli ma’yus ko‘nglimni,
Botir Zokirovni o‘ylayveraman...**

**Ketaman. Kelaman uni so‘roqlab
Qo‘limda dehqon yurtning jambili, men.
U endi kuylamas bag‘rimni dog‘lab,
Sen kuylayver “Yalla” ansambli, men –
Botir Zokirovni o‘ylayveraman!**

**Muhammad YUSUF,
O‘zbekiston xalq shoiri**

TURKIY DUNYO BIRLIGI

O‘RTADA BEGONA YO‘Q

Turkiy xalqlar jahon tamadduniga, xususan, dunyo adabiyoti va madaniyati rivojiga salmoqli hissa qo‘shgani barchaga ma’lum. E’tiborli jihati, bu jarayon bugungi kunda ham izchil davom etmoqda. Turkiy tilli mamlakatlar o‘rtasida madaniy-ma’rifiy hamkorlikni rivojlantirishga qaratilgan salmoqli loyihalar muvaffaqiyatli amalga oshirilmoqda. Turkiy davlatlar tashkilotining adabiyot sohasida Alisher Navoiy nomidagi xalqaro mukofoti ta’sis etilgani, 2020-yilda Xiva shahri turkiy dunyoning madaniy poytaxti deb e’lon qilingani ma’naviy hayotimizda unutilmas voqea bo‘ldi. Keyingi vaqtlarda mamlakatimizda ham ushbu yo‘nalishda nufuzli xalqaro tadbirlar muntazam tashkil etilmoqda.



Joriy yilning 17-19-aprel kunlari Buxoro shahrida o‘tkazilgan turkiy tilli davlatlar yosh ijodkorlari forumi ham ana shunday hamkorlikning uzviy davomi bo‘ldi. Madaniyat vazirligi, Yozuvchilar uyushmasi, Buxoro viloyati hokimligi hamda TURKSOY tashkiloti hamkorligida tashkil etilgan mazkur xalqaro tadbirda Turkiy davlatlar tashkilotiga a’zo mamlakatlarning yosh shoir va yozuvchilari, san’atkorlari ishtirok etdi. Anjuman uchun Buxoro shahri tanlangani ham bejiz emas. 2022-yili bu yerda o‘tkazilgan Turkiy davlatlar tashkilotining yosh liderlar forumida Buxoro shahri “Turkiy dunyo yoshlari poytaxti” deb e’lon qilingan edi. Shu munosabat bilan “Turkiy dunyo yoshlari bog‘i” tashkil etilgan. Qolaversa, azim Buxoro jahoniy shuhrat tutgan sayyohlik shaharlaridan biri sifatida qardoshlarimizni qiziqtirishi, shubhasiz.

Anjumanda turkiy dunyo madaniyatini ravnaq toptirishga hissa qo‘shish, xalqlarimiz o‘rtasida adabiy-madaniy aloqalarni yanada mustahkamlash, ijodning turli sohalarida hamkorlikni rivojlantirish kabi masalalar atroflicha muhokama qilindi. Abu Ali ibn Sino nomidagi Buxoro tibbiyot institutida bo‘lib o‘tgan anjumanning rasmiy ochilish marosimida TURKSOY Bosh kotibi Sulton Rayev, O‘zbekiston Respublikasi Madaniyat vaziri o‘rinbosari Murod Majidov, O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasi raisining o‘rinbosari Botir Ergashev so‘zga chiqdi.

Xususan, Sulton Rayev o‘z chiqishida bugungi yoshlar tinimsiz ijod qilish bilan birga, qardosh xalqlar adabiyotini ham chuqur o‘rganishi, tafakkur bilan o‘qish va uqishi zarurligini alohida qayd etdi. U kishining bir necha turkiy tillarda so‘zlagani, ulug‘ shoirlarimiz ijodidan iqtiboslar keltirgani ishtirokchilarda katta taassurot uyg‘otdi.

(Davomi 2-sahifada).

YORUG‘ XOTIRA

CHIN BAXTI SO‘Z DESA, YOLG‘ONI BO‘LMAS...



Xotira – sog‘inch sahrosiga suv sochadigan shalola...
Xotira – xatolar, yanglishishlardan saboq berguvchi muallim...
Xotira – armon dardiga malham...
Xotira – umidlar osmoniga uzaygan pillapoya...

Poytaxtimizning muazzam koshonalaridan birida O‘zbekiston xalq shoirasi Oydin Hojiyeva tavallud sanasi munosabati bilan o‘tkazilgan marosim ruhiyatiga ana shunday azaliy va abadiy hayotiy xulosalar uyg‘un bo‘ldi. Tadbirga yig‘ilgan davlat arboblari, diniy ulamolar, shoiraning safdoshlari, do‘stlari, yaqin qarindoshlari, shogirdlari koshona devoriga o‘rnatilgan monitorda butun ongli hayoti davomida el-yurtimizga fidoyi farzand maqomida xizmat qilgan shoiraning hayoti va faoliyatiga oid jonli tasvirlarni ko‘rar, uning umr yo‘ldoshi – O‘zbekiston Qahramoni Ibrohim G‘afurov va shogirdlari O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan madaniyat xodimlari Sharifa Salimova, Munavvara Usmonovaning yodnomalarini tinglar ekanlar, bir inson, bir ayol imkonida nechog‘lik mas’uliyat, sadoqat, shijoat mujassam bo‘lganini yana bir karra his etdilar.

O‘zbekiston xalq shoiri Mahmud Toir, O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasi raisining birinchi o‘rinbosari Minhojiddin Mirzoning shoira tabiatidagi halimalik, she’rlaridagi samimiyat borasida aytgan fikrlaridan so‘ng davraga hali bizdan uzoqlashib ketmagan oydin she’riyatning nafasi qaytganday bo‘ldi. Ayniqsa, mashhur shayx Alijon qori domla tomonidan o‘qilib, muhtasham koshona naqshlarida ajib bir aks sado bergan Qur’on tilovatidan so‘ng marhuma haqqi-hurmati uchun dil-dildan qilingan duolarga bugungi osuda hayotimiz, farovonligimiz shukronasi ham singib ketgandek edi go‘yo.

“El-yurt hurmati”, “Fidokorona xizmatlari uchun” kabi yuksak mukofotlar sohibasi bo‘lgan ustoz shoira bilan qariyb o‘n sakkiz yil men hozir ham faoliyat yuritayotgan “Saodat” jurnalida birga ishlaganmiz. Oydin opam yangi she’r yozsa, judayam boshqacha bo‘lib ketardi.

– Qutlijon (negadir hammamizni “jonjon”lar edi: Sharifajon, Xosiyatjon...), yangi she’r yozdim, – derdi ko‘zi porlab, yuzi nurlanib. Ba’zilar kabi “bir narsa qoraladim”, “she’rmi, she’rmasmi, aytasiz...” tarzida ikkilanish bo‘lmasdi. Yangi she’r uning nazarini botir, jasoratli qilib yuborar edi.

*Shoshilma aytmoqqa!
Ko‘ngil tubida
Mehr sadafida gavhar –
bitta so‘z.
Shoshilma!
Shoshilma, til g‘ilofida
O‘ljasini kutgan xanjar –
bitta so‘z!..*

Ustoz she’r o‘qir ekan, satrlar shu qadar ravon, ohanglar shunchalar o‘ynoqi bo‘lar ediki, nazarimda, ular mutlaqo qiynalmasdan, kimdir opaning qulog‘iga shivirlab turgani kabi... Osongina yozilayotgandek tuyulardi menga.

*Sen ayolga
shohi ko‘ylak olib berma,
gulimsan, degil!
Afsonaviy qasr qurma,
Dilimsan degil!..*

“Oydin opa, she’rlaringizdagi so‘zlar xuddi raqsga tushib kelayotgandek ko‘rinadi menga”, derdim. Ehtimol, hamisha ilhom bilan yozilgani uchundir. Balki, shoira xalq og‘zaki ijodini nihoyatda yaxshi bilgani, shu daryodan ko‘proq suv ichganigadir...

Nima bo‘lganida ham, boshlarini xiyol egib, she’r o‘qiganlarida eshitgan odam cheksiz huzur qilardi:

*Allohdan so‘radim:
Yarimta nonimni but qilib berdi,
Yarimta jonimni o‘t qilib berdi,
Beg‘am yuragimni dud qilib berdi,
So‘zlarimni yana ud qilib berdi...*

Men Oydin opamning she’riyatini “Vatanni sev”, deb aytmay sevdirgan she’riyat” degim keladi. Manzaralar shu qadar jozibali chiziladiki, beixtiyor ularning ichiga kirib ketging, soylarida yarqiragan toshlariga bosh qo‘yib yotging, oydin tunlarini yog‘dularga belagan oy shu’lalarini arg‘imchoq qilib uchging keladi.

*... Bog‘larning ko‘ylagidan
Hid o‘g‘irlar epkinlar.
Tun yuziga toshadi,
Oq sedona – sepkillar...*

(Davomi 2-sahifada).



O‘RTADA BEGONA YO‘Q

Boshlanishi 1-sahifada.

– Barchamiz bir daraxtning baquvvat shoxlari sifatida dunyo taraqqiyotiga chinakam xizmat qiladigan, inson qalbiga malham bo‘ladigan yuksak asarlar yaratishimiz lozim, – dedi u.

Shu kuni turkiy xalqlar san’atining yosh vakillari tomonidan o‘z elining asriy qadriyatlari, do‘stlik, birodarlik va sadoqat tarannum etilgan ajoyib kuy va qo‘shiqlar, betakror raqslar ijro etildi. Darhaqiqat, inson qalbi hamisha yaxshilikka, go‘zallikka talpinadi, ezgu orzu-umidlarini so‘z va ohanglar, harakat va ishoralar orqali bayon etishga intiladi. Ajabki, bunday hissiyotlarning, tuyg‘ularning, sevgi-muhabbatning, odamiylikning millati yo‘q.

Olti qardosh mamlakatning yosh shoirlari sahnaga bir paytda chiqib, o‘z tilida she’rlar o‘qishdi. Navqiron shoirlarning o‘z nigohi, o‘z qarashlari, o‘z topilmalari va dilini qiynayotgan o‘z iztiroblari borligi ayon bo‘ldi. She’riy ohanglar, ijodiy yondashuvlar har millatda o‘ziga xos, o‘zgacha ekani yaqqol namoyon bo‘ldi.

Anjuman doirasida Buxoro viloyati musiqali drama teatrida Qirg‘iz xalq yozuvchisi Sulton Rayevning “Ovsar” dramasi asosida sahnalashtirilgan pyesasi taqdimoti ham o‘tkazildi. Mashhur adib Chingiz Aytmatovning “Asrga tatigulik kun” romanidan o‘rin olgan “Nayman ona qissasi” asosida yozilgan ushbu drama iqtidorli adib



Abdug‘ani Abdug‘afurov tomonidan o‘zbek tiliga mahorat bilan tarjima qilingan. Unda ma’naviy tanazzulga yuz tutishning ayanchli oqibatlari, millatning ma’naviy qiyofasini boy berishi va azaliy qadriyatlar toptalishining sabab va oqibatlari ta’sirchan yo‘sinda ochib berilgan. Teatr ijodkorlarining ushbu salmoqli asarni yuqori saviyada, o‘ziga xos talqinda sahnaga olib chiqqanini alohida ta’kidlash lozim. Drama turkiy tilli mamlakatlar yosh ijodkorlariga birdek manzur bo‘ldi.

Anjumanning ikkinchi kunida Buxoro viloyati markaziy kutubxonasida o‘tgan yili hurmatli Prezidentimiz tashabbusi bilan o‘zbek tilida nashr etilgan “Turkiy adabiyot durdonalari” 100 tomlik majmuasining taqdimoti o‘tkazildi. Tadbirda mazkur to‘plamni yaratish jarayoni va unda jamlangan asarlar to‘g‘risida ma’lumot berildi. Ishtirokchilar ushbu to‘plam turkiy xalqlar adabiy merosini aks ettiruvchi noyob ma’naviy majmua bo‘lganini alohida qayd etishdi.

Shuningdek, “Turkiy tilli davlatlar yosh ijodkorlarining dunyo madaniyatidagi o‘rni” mavzusidagi xalqaro konferensiyada qardosh xalqlar madaniyatini asrab-avaylash va rivojlantirish, yuksak saviyali asarlarni o‘zaro tarjima qilish kabi masalalarda fikr almashilib, foydali takliflar o‘rtaga tashlandi. E’tiborli jihati, muloqot jarayonida qirg‘izistonlik Qamchibek Uzoqboy o‘g‘li hamda qozog‘istonlik Davron Tilovxonning o‘zbek tiliga o‘girilgan she’rlari asliyati bilan qiyosiy solishtirilib, atroflicha muhokama qilindi. Kelgusida bu an’anani izchil davom ettirish zarurligi qayd etildi.

Tabiiyki, anjuman doirasida Buxoro shahridagi noyob me’moriy yodgorliklar, ulug‘lar ziyoratgohlariga sayohatlar tashkil etildi. Xususan, mehmonlar Amir Sayyid Kulol va Bahouddin Naqshband ziyoratgohida bo‘lib, ushbu muqaddas zaminda abadiy qo‘nim topgan ulug‘ valiylar, olim-u fozillarning haqqiga duo qildilar. Buxoro amirining arki va yozgi rezidensiyasi bilan tanishuv ham unutilmas taassurotlarga boy bo‘ldi. Shahardagi o‘zining tarixiy qiyofasini saqlab qolgan har bir obida ijodkorlarning hayrat va hayajoniga sabab bo‘ldi. Mehmon va mezbonlar yo‘l-yo‘lakay o‘zaro do‘stlashib, muntazam hamkorlik qilishga, ijtimoiy tarmoqlar orqali ijodiy muloqotlarni davom ettirishga kelishib olishdi.

– Qiziqki, mehmonlar bilan muloqot chog‘ida tarjimonga sira hojat bo‘lmadi. Agar yana uch kun birga yurganimizda, bir-birimizni bemalol tushunib, qiyinchiliksiz muloqot qilar edik, – deydi anjumanda mezbon maqomida ishtirok etgan iqtidorli yosh shoira Feruza Xayrullayeva.

Buxoro shahridagi Nodir devonbegi madrasasida tashkil etilgan qabul marosimida o‘zbek xalqi san’atining bebaho durdonasi hisoblangan go‘zal kuy va qo‘shiqlar, raqslar guldastasi hamda hunarmandchilik ko‘rgazmasi tom ma’noda mehmonlarni sehrlab qo‘ydi. Qolaversa, shahardagi Labi hovuz majmuasi va “Turkiy dunyo yoshlari bog‘i”ga uyushtirilgan sayohatlar, “Buxoro shahri – birinchi turkiy dunyo yoshlar tashabbuslari poytaxti” monumenti atrofida kechgan maroqli suhbatlar ham unutilmas lahzalarga boy bo‘ldi.

Anjumanda qardosh xalqlar o‘rtasidagi ishonch va do‘stlik muhitini yanada mustahkamlash, madaniy-gumanitar sohalarda hamkorlikni rivojlantirish bo‘yicha qiziqarli taklif va tashabbuslar o‘rtaga tashlandi. Bu borada birgalikda amalga oshiriladigan vazifalar belgilab olindi. Xususan, iste’dodli yosh ijodkorlarning sara asarlarini bir necha turkiy tilda chop etishga ixtisoslashgan adabiy jurnal ta’sis etish hamda turkiy tillarda ijod qilayotgan yoshlarga o‘zbek adabiy tilini o‘rgatadigan elektron platforma yaratish g‘oyasi barchaga birdek manzur bo‘ldi.

Buxoro anjumani qatnashchilari yanada faol ijod qilib, kelgusida qardosh xalqlarning umumiy farovonligi va ravnaqiga, qolaversa, butun dunyoda ezgulik keng tomir yoyishiga xizmat qiladigan tengsiz asarlar yaratishiga ishonchimiz komil. Ana shunday ezgu maqsadga erishish yo‘lida bunday xalqaro tadbirlarning ahamiyati beqiyosdir.

Ma’mura ZOHIDOVA,
O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasi a’zosi

CHIN BAXTI SO‘Z DESA, YOLG‘ONI BO‘LMAS...

Boshlanishi 1-sahifada.

Shoira bunday go‘zal manzaralarni xayolida yasab, keyin qog‘ozga tushirmasdi. Imkon bo‘ldi degancha, yurtimizning shahar-u qishloqlarini kezardi. Baxtim shundaki, bunday safarlarning ko‘piga meni o‘zi bilan olib borgan. Sahar, oqshom demasdi. Kunduzlar paxtakorlarga mashina kuzovi ustida turib she’r o‘qigan paytlarimiz ham bo‘lgan.

– Siz terimga g‘ayrat qiling, biz siz uchun she’r o‘qiymiz, – derdi. Hisobchidan ilg‘or terimchilar ismini so‘rab olib, o‘sha ismlarni qo‘shib ham she’r to‘qib yuborardi. Katta shoiraning she’riga ismi qo‘shilgan ayollar xursandligining cheki yo‘q... Oqshomlar talaba yoshlar bilan uchrashar edik. Ustozning g‘ayrat-shijoati ichiga sig‘mas, charchadim, demasdi. To‘quvchilar, tikuvchilar, gilamdo‘zlar, chorvadorlar... Men xalqimni o‘shanday safarlarda tanidim, o‘shanday safarlarda sevdim. Buning uchun ustozdan bir umr minnatdorman.

Darvoqe, ustozlik... Oydin Hojiyeva Zulfiyaxonimdan meros an’anani sadoqat bilan davom ettirdi. Tahririyatimiz hamisha yosh ijodkor qizlar bilan gavjum edi. Opa har qancha shoshilinch ishi bo‘lsa-da, ular bilan ikki og‘iz gaplashishga, bitta “yilt” etgan satrini topib, ko‘ngillarini ko‘tarishga vaqt topardi. Hamroxon, Farog‘at, Nasiba, Gulandom... Yana qancha-qancha shoiralarga qanot berganlarini bilaman. Bayram kunlari xonasida mushoiralar uyushtirar edi. 1999-yilda “Gulchehralar” gazetasini ham adabiyotga endi kirib kelayotgan ijodkor yoshlar uchun shaxsiy tashabbusi bilan tashkil qilgan edi. “Boychechak” sahifasida o‘nlab qizlarning ilk mashqlarini e’lon qilib, qalamiga umid tug‘ilishiga sababchi bo‘lganlari haqiqat. Oydin opadan o‘rganishga arziydigan yana bir jihat bor edi: u o‘zini katta yo‘llarga yo‘naltirgan ustozlariga nihoyatda sadoqatli edi. Zulfiyaxonim, Muzayyana Alaviya, Saidaxonim, Kibriyoxonimlar haqida “To‘rt tanho” yodnomasini yozib, ularning xotirasiga so‘zdan haykal qo‘ydi, desak, haq gapni aytgan bo‘lamiz.

Akademik shoir G‘afur G‘ulom tavallud kunlari, albatta, jamoamizni u kishining uy-muzeylariga boshlab borardi. Biz jamoa bo‘lib, bot-bot Chig‘atoy qabristonini ziyorat qilishga borardik. Zulfiyaxonim, Saida Zunnunovalar ziyoratidan so‘ng Shayxzoda hazratlari xoki poyiga o‘tardik. “Yo‘qlovchisi yo‘q, mendan so‘ng ham kelib turinglar!” deya tilovat qilardilar. Oydin opa “Yosin” surasini o‘qiganda eshitib sel bo‘lardik. Men ba’zan hazil aralash:

– Siz shoira bo‘lmaganingizda ham Tilla kampirdek baxtli, hech bo‘lmasa otincha bo‘lar edingiz, – deb qo‘yardim.

Oydin Hojiyeva “Saodat” jurnaliga, boya aytganimday, o‘n sakkiz yil bosh muharrirlik qildi. Har yili sakkiz son chop etilgan bo‘lsa, sakkiz kitob degani bu. Zimmasidagi vazifalarni hamisha vijdonan ado etardilar. Hatto suratlardagi ost yozuvlargacha takror-takror o‘qir edilar. Ba’zan:

– Sizga ishondim, – degan materiallarini ham baribir o‘zi ko‘zdan kechirar, menga bu injiqlikdek tuyulib, qovoq uysam:

– Bir ko‘z – bir ko‘z, ikki ko‘z – ikki ko‘z. Matbuotning xatosi yomon aks sado beradi. O‘quvchi daftarining xatosi emas bu, – der edilar. Nihoyatda husnixat, maqolalarni tahrir qilsa ham, muallifning yozganlari ustidan chizmay, chiroyli dumaloqqa olib, qog‘oz hoshiyasiga o‘zinikini yozar edi. “Betiga chizgandek bo‘lmasin, xafa bo‘ladi. Chizib tashlamang”, deb koyirdilar meni.

Shu joyda shaxsan o‘zimga qilgan yaxshiliklarini ham yozgim kelyapti. 1996-yil turmush o‘rtog‘im Miraziz aka katta jarrohlik amaliyotini boshdan kechirdi. Uch oy yonlarida qarab o‘tirdim. Oydin opam tahrir uchun materiallarni shifoxonaga tahririyatdagi qizlardan berib yuborardilar. Ishni tugatsam, ular yana kelib olib ketishardi. “Uyalyapman, o‘z hisobimdan ta’til bera qoling” desam, “Dori-darmonga pul kerak, qiynalib qolasiz”, deganlar... Hatto maoshimni ham olib kelib berishardi...

Oydin Hojiyeva ham yurt kezib, ham jurnalni boshqarib, ham xalq noibi bo‘lib, ham shogirdlarga ustozlik qilib, ham adabiyotimizga “Mushfiq onajon”, “Tuhfa”, “Shom shu’lalari” kabi o‘nlab she’riy kitoblar tuhfa etdi. Tarjimalar qildi. Texnika fanlari doktori bo‘lgan olima qizni tarbiyaladi. Bugun uning nabiralari ham ilm yo‘lida. Ibrohim G‘afurovday benazir tarjimon, ulug‘ adabiyotshunosning baland adabiy xirmonida shoiraning hissasi katta, albatta.

Hayot ekan, umrlari poyonida Alloh dard bilan sinadi. Sinovlarga chiroyli bardosh berdi. Nola qilmadi, shukr qildi... “Saodat”imizning Xosiyat qizi ustoz shoiraning yonida bo‘ldi. Jamoamiz bilan bot-bot yo‘qlab turdik, duolarini oldik. Nimayam derdik, Zulfiyaxonim aytmoqchi: “Shu-da bir hayot...”

El sevgan shoirining izida go‘zal xotiralar, kitoblar, farzand-u nabiralar, adabiyot maydoniga dadil kirgan, kirayotgan shogirdlar...

Tasallimiz – shu...

Oxiratlari obod bo‘lsin, ilohim!

Qutlibeka RAHIMBOYEVA,
O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan madaniyat xodimi, shoira

MARDLARNING AVLODI MARD BO‘LAJAK!



Boshlanishi 1-sahifada.

– Kutubxonamizda 7 mingdan ortiq o‘quv adabiyotlari va badiiy kitoblar, 11 mingdan ziyod elektron adabiyotlar jamlangan. Bundan tashqari, ko‘plab davriy nashrlarga obuna bo‘lganmiz. Ziyo maskanimiz doimo gavjum. O‘quvchilarimizning kitobxonlikka qiziqishini ko‘rib o‘z kasbim bilan faxrlanaman. Bizda elektron kitoblarga ham qiziqish katta. Kutubxonamiz Urganch davlat universiteti axborot-resurs markazi va O‘zbekiston Milliy kutubxonasining elektron bazasiga ulangan, – deydi Inobatxon. – O‘quvchilarimizning kutubxonaga qattiq bog‘lanishining asosiy sabablaridan biri – bizda ularning qo‘liga mobil telefonlar umuman berilmaydi. Yigitlar ota-onalari bilan xohlagan vaqtda gaplashishi uchun navbatchilik xonasida telefon o‘rnatilgan.

Kitob mutolaa qilish va badiiy asarlar yuzasidan o‘zaro fikr almashish, mulohaza yuritish o‘quvchilarning dunyoqarashi va bilim doirasini kengaytirishga xizmat qilmoqda. O‘quvchilarga o‘tmishda yashab o‘tgan shavkatli sarkarda ajdodlarimizning harbiy-jangovar merosiga oid ma’lumotlar chuqur o‘qitilmoqda. Bu yerda tashkil qilingan “Zakovat” intellektual klubi va axborot texnologiyalari to‘garagi muntazam faoliyat ko‘rsatmoqda.

Harbiy-akademik litseyning mashg‘ulotlar maydonlarida shug‘ullanayotgan o‘quvchilarning shijoatli xatti-harakatlarini ko‘zdan kechirarkanmiz, Shimoliy-g‘arbiy harbiy okrug qo‘mondoni, general-mayor Farhodjon Shermatovning so‘zlari e’tiborimizni tortdi: “Qurolli Kuchlar Oliy Bosh Qo‘mondonining tashabbusi bilan tashkil etilgan ushbu litseyga birinchi yildayoq o‘qishga kirish uchun har bir o‘ringa 17 nafardan yoshlar da’vogar bo‘lishdi. Bu yil ularning soni yanada oshishi kutilmoqda. Bu bizni, albatta, quvontiradi. Chunki farzandlarimiz orasida harbiy sohaga, Vatan himoyachisi degan sharafli kasbga qiziqish kun sayin ortib bormoqda”.

Sport zalida erkin kurash bo‘yicha 5 karra O‘zbekiston chempioni, sport ustasi Umrbek Allayarov, milliy kurash bo‘yicha 4 karra O‘zbekiston chempioni, sport ustasi Doniyor Boltayev rahbarligida mashg‘ulot o‘tayotgan o‘g‘lonlarning shiddati bizga sulton Jaloliddin Manguberdining suvda cho‘kmas, o‘tda kuymas, yovqur askarlari shijoatini eslatdi.

Ay-Ti to‘garagining faol a’zosi Vahob Shamsuddinov ustozi Bekzod Jumaniyazov rahbarligida mobil telefon orqali boshqariladigan avtorazvedka uskunasi va o‘ziuchar qurilma modelini ixtiro qilganini ko‘rib bir hayratimizga o‘n hayrat qo‘shildi.

– Men Navoiy viloyatining Konimex tumanida tug‘ilganman, – deydi Vahobjon. – Bolaligimdan harbiy uchuvchi bo‘lishni orzu qilar edim. Jaloliddin Manguberdi nomli harbiy-akademik litseyga o‘qishga kirishim – ana shu maqsadimga erishish yo‘lida dastlabki katta qadam bo‘ldi. Men bu yerda orzumdagi harbiy texnikalar modelini yaratishni o‘rganmoqdaman. Shu tariqa ko‘nglimda aviakonstruktorlik kasbiga kuchli ishtiyoq paydo bo‘ldi. Tajribali ustozlarim yordamida ana shu maqsadimga erishishimga ishonaman.

Harbiy-akademik litsey o‘quvchilari turli rusumdagi avtomashinalarni boshqarish sirlarini puxta o‘zlashtirib, haydovchilik guvohnomasini ham olishar ekan.

– Ulug‘ sarkarda Jaloliddin Manguberdining umri ot ustida o‘tgan. Uning bugungi avlodlari ham chavandozlik mahorati va otlarni parvarish qilish sirlarini puxta o‘zlashtirishlari lozim. Biz shuni nazarda tutib, Milliy gvardiya bilan hamkorlikda chavandozlik darslarini ham yo‘lga qo‘yganmiz, – deydi litsey rahbari Ixtiyor Saidov.

Jaloliddin Manguberdi nomidagi harbiy-akademik litseyning anjumanlar zalida poytaxtdan tashrif buyurgan mehmonlar ishtirokida sermazmun adabiy-ma’rifiy anjuman tashkil etildi. Mamlakatimiz madhiyasini jo‘rlikda kuylashdan boshlangan ushbu tadbirda dastlab O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining maslahatchisi, ustoz adib Xayriddin Sultonov vatanparvarlik, mardlik va jasorat fazilatlari haqida qimmatli fikr-mulohazalari bilan o‘rtoqlashdi. Mudofaa vazirining o‘rinbosari, general-mayor Hamdam Qarshiyev, Respublika Ma’naviyat va ma’rifat markazi rahbari Otabek Hasanov Qurolli Kuchlar tizimida amalga oshirilayotgan keng ko‘lamli islohotlar hamda Yangi O‘zbekistonda yoshlarni har tomonlama barkamol insonlar qilib tarbiyalash borasidagi ustuvor vazifalar haqida ma’ruza qilishdi.

O‘zbekiston xalq shoiri Mahmud Toir, taniqli ijodkorlar Eshqobil Shukur, G‘ayrat Majid, Farog‘at Xudoyqulovaning el-yurt, ona Vatan tarannumiga bag‘ishlangan she’rlari hamda izlanuvchan kinorejissyor Hilol Nasimovning chiqishi anjumanga alohida fayz bag‘ishladi. Ayniqsa, O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan artistlar Mehriddin Rahmatov va Tohir Saidov ijrosidagi sulton Jaloliddin Manguberdi hamda Sohibqiron Amir Temur monologlari barchada katta taassurot uyg‘otdi.

Mardlarning avlodi mard bo‘lajak. Vatanga sadoqat – nasldan nasllarga o‘tadigan qudratli kuchdir. Yurt uchun yashaganlar abadiy hayotdir. Shular haqida o‘ylarkanman, hassos shoirimiz Maqsud Shayxzodaning “Jaloliddin Manguberdi” dramasidagi quyidagi satrlar ko‘nglimda jaranglab aks sado berdi:

Mangulikdan joy olgan – yashar abadiy,
Men-ku, Manguberdiman, olam biladi.
Ko‘klardanmi, suvdanmi, yo yer tagidan,
Balki sahro bag‘ridan, tog‘ etagidan,
Bir kun paydo bo‘laman shu yurt, shu yerda,
Yurt shaydosi ko‘milmas g‘urbatda – go‘rda.
Ulug‘vor niyatlarga kor qilmas ajal,
Kim yurtdan yov quvsa – mendirman o‘shal...

Zulfiya MO‘MINOVA,
O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan madaniyat xodimi,
Mudofaa vazirligi Jamoatchilik kengashi a’zosi

BONG

HAYLAM SHAHRISTONIDA KECHGAN SUHBATLAR

Tarix fanlari doktori, O‘zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi, O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan fan arbobi Ahmadali Asqarov bilan suhbatlashish maqsadida qo‘ng‘iroq qilganimda, domla Namangan viloyatidagi Uchtepa qadimiy yodgorligida ish olib borayotganini aytib, shu yerga taklif qildi. Men o‘ylab o‘tirmay yo‘lga chiqdim.

Ustoz bilan ochiq osmon ostidagi muzey – qadimgi zardushtiylar ibodatxonasi xarobalarida uchrashdik. Tabiiyki, suhbatimiz so‘nggi yillarda milliy arxeologiya fanida yuz berayotgan o‘zgarishlar, shuningdek, bugun olim tadqiq etayotgan Haylam yodgorligi va uning topilishi tarixi haqida kechdi.

– Ustoz, o‘zingiz mana shu Uchtepa qishlog‘ida tug‘ilib o‘sgansiz. Biroq ushbu yodgorlikning endigina topilgani bizni ajablantirdi...

– Men bu qadimiy arxeologik yodgorlikni maktabda o‘qib yurgan kezlarimda ham, talabaligimda ham, Samarqanddagi Arxeologiya institutida direktor bo‘lganimda ham yaxshi bilardim. Ammo biz kabi mahalliy xalqlarga past nazar bilan qaraydigan, imkon qadar o‘zligimizni anglash va shonli tariximizni o‘rganishga to‘sqinlik qilgan sobiq sho‘rolar zamonida har qanday yangi arxeologik tadqiqotni boshlash katta muammo edi. Keyinchalik imkon topilganida esa, falonchi o‘zining qishlog‘idagi obyektni o‘rganish uchun davlat mablag‘ini sovuryapti, degan malomatlardan cho‘chib, bunga jur’at qilolmaganman. O‘sha paytda bu joylar ancha ovloq hudud hisoblanar edi. O‘tgan asrning 90-yillarida odamlarga uy-joy qurish uchun berilishi natijasida yodgorlikning katta qismi yo‘qolib ketdi. Nihoyat, nafaqaga chiqqanimdan keyin Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi loyihasi asosida Uchtepa arxeologiya obyektini o‘rganib, qadimgi Haylam shahridagi zardushtiylar ibodatxonasi qoldiqlarini tadqiq qilishga kirishdim. Haylam – hozirgi Uchtepa qishlog‘ining o‘rnida, Norin va Qoradaryo oralig‘idagi zardushtiylar makoni bo‘lgan.

– Ibodatxona, umuman, Haylam shahrining o‘sha paytlardagi ko‘rinishini topilmalar asosida tasavvur qilish mumkinmi?

– Aniqlangan obyekt atrofidan yetmishta otashkada, yigirmadan ortiq haykalcha topildi. Bunday ko‘lamdagi topilma dunyo miqyosida hozirgacha uchramagan. Qo‘lga kiritilgan ashyolarning ilmiy qimmati va ahamiyati beqiyos bo‘lib, taxminan, miloddan oldingi III–II asrlarga oid topilmalar ham bor. Miyono‘rdah muzofotida joylashgan shahar hududi devor bilan o‘ralgan 38-40 gektar maydondan iborat. Tarixiy ma’lumotlarga qaraganda, vodiyda sakkizta mana shunday muzofot joylashgan va Haylam shahri ulardan birining poytaxti bo‘lgan. Bugungacha uning maydoni, janubiy, g‘arbiy, shimoliy, sharqiy chegaralari aniqlandi. Uch qator mudofaa devori bilan mustahkamlangan shaharda hukmdor qarorgohi, zardushtiylar ibodatxonasi, shahriston bo‘lgan. Bu ibodatxona Qutayba boshliq arablar o‘lkamizga bostirib kelgunicha faoliyat yuritgan. Ibodatxonada olov yoquvchi rohibalarning qabrlari ham topildi.

Bu yerda muzey tashkil qilishga 2019-yilda kirishganman. Loyiha ikki yilga belgilangan edi. Hali oxiriga yetkazilgani yo‘q. Oz-ozdan mablag‘ berib turishibdi.

– Keyingi yillarda yurtimizda arxeologiyaga qay darajada e’tibor qaratilyapti? Sohada qanday yangiliklar yuz bermoqda?

– Mustaqillikning dastlabki yillarida akademik fan sohasiga e’tibor yaxshi edi, ilmiy tadqiqot institutlari xodimlariga davlat byudjetidan oylik maosh to‘lanardi. Ammo keyinchalik ilm ahlining ish haqini tadbirkorlardan buyurtma olib, kontrakt asosida ishlash orqali qoplash tartibi joriy qilindi. Ya’ni, o‘z aravangni o‘zing tort, degan yo‘sinda ish tutildi. Shuningdek, akademik fanni rivojlantirish bilan bog‘liq moliyaviy homiylik ham to‘xtatildi. Ma’lumki, nazariy ilmiy ishlanmalar laboratoriya tajribalari va dala amaliyotlarisiz rivojlanmaydi. Natijada qo‘shimcha mablag‘ talab etadigan nazariy ishlanmalarni amaliyot bilan uyg‘unlashtirish tamoyili buzildi. Shu bois, davlatning e’tiboridan chetda qolgan arxeologiya fanida ham ma’lum muddat turg‘unlik holati kuzatildi. Biz ilojsizlikdan eski aloqalarni ishga solib, xorijiy hamkasblarimiz bilan hamkorlikda bir necha ilmiy ekspeditsiyalar tashkil qilishga majbur bo‘ldik. Biroq ajnabiy muxbirlar har bir kashfiyotni chet ellik olimlarning yutug‘i sifatida talqin qilishdi va natijada o‘zbek arxeologlarining kashfiyotlari ularning soyasida qolib ketdi. Chunki ilmiy ekspeditsiyalarni ular moliyalashtirar edi.

1996-yilda arxeologlarga dala sharoitida to‘lanadigan eng kam ish haqi ham bekor qilindi. Shunga qaramay, mustaqilligimizning dastlabki yillarida soha olimlarining sa’y-harakatlari tufayli tarix va arxeologiya sohasida muayyan o‘zgarishlar yuz berdi. Katta ilmiy salohiyatga ega olimlarning aksariyati fidoyi insonlar edi. Ular ish va boylik ilinjida Vatanni tashlab, xorijga ketmadilar. Ana shu vatanparvar ziyolilarning irodasi va matonati tufayli sohada bir qator salmoqli yutuqlarga erishildi.

– Shu haqda batafsilroq to‘xtalib o‘tsangiz.

– Birinchidan, sovetlar davrida O‘zbekiston janubida ochib o‘rganilgan Sopollitepa, Jarqo‘ton, Bo‘ston kabi qadimgi dehqonchilik madaniyati yodgorliklari har tomonlama chuqur tadqiq etildi. Yangicha tahlillarga ko‘ra, ulardan topilgan noyob arxeologik artefaktlar yordamida bizning janubiy viloyatlarimiz bronza davridan e’tiboran qadimgi Sharqning birlamchi sivilizatsiyalari tarkibiga kirgani ilmiy jihatdan isbotlandi hamda Janubiy Turkmaniston, Shimoliy Afg‘oniston yodgorliklari bilan birga jahon tarixiga Oks sivilizatsiyasi nomi bilan kiritildi. Avvallari tarixshunoslikda bunday g‘oyani aytish amrimahol edi, chunki ko‘pchilik o‘zbek deganda dashtda yashovchi turkiy tilli chorvadorni tushunardi.

Avvalo, uzoq yillar tarixshunoslik fanida O‘zbekistonda bronza davrida tarkib topgan qadimgi shaharsozlik madaniyati va o‘zbek davlatchiligining asoslari dastlab Erondan kirib kelgan, degan g‘oya yetakchilik qilib keldi. Hatto, o‘sha davrda yurtimizda yuksak darajada rivojlangan kulolchilik mahsulotlari to‘g‘ri-



dan to‘g‘ri “Ahamoniylar keramikasi” deb ataldi va bizga ana shunday mantiqqa zid qarashlar singdirildi. Lekin mustaqillik yillarida birlamchi arxeologik materiallarni g‘oyaviy tazyiqlardan xoli tarzda yangicha tahlil etish natijasida bu borada asl tarixiy haqiqatni yuzaga chiqarish imkoni tug‘ildi. Ya’ni, miloddan avvalgi VI asrda yuz bergan ahamoniylar bosqiniga qadar Markaziy Osiyoda bronza davri birlamchi sivilizatsiya yutuqlarining qayta tiklanish pallasi bo‘lgani ilmiy jihatdan isbotlandi.

Shuningdek, sho‘rolar tarixshunosligida O‘zbekistonning qadimgi shaharsozlik madaniyati va davlatchilik ildizlari antik davrdagi Yunon-Rim sivilizatsiyasi bilan bog‘lab talqin qilinar edi. Holbuki, antik davrda an’anaviy mahalliy o‘zbek davlatchiligiga innovatsiya sifatida kirib kelgan ellinizm amaldagi me’moriy moddiy madaniyatda, tovar-pul munosabatlari shakllanishida, diniy qarashlarda, yozuv madaniyatida o‘z aksini topgan bo‘lsa-da, aslida ushbu buyuk yuksalish zamirida Qadimgi Sharq madaniyatiga xos bo‘lgan bronza davriga oid Sopolli madaniyatining an’ana va omillari yotar edi.

Yana bir e’tiborli jihati, Kushon davlatining etnik jihatdan turkiylarga mansub bo‘lgan hukmdori Kanishka ellin mafkuraviy madaniyatidan voz kechib, o‘zining aso (davlat ramzi) tutgan surati va turkiy oriylarga xos samoviy ot ramzi tushirilgan tangalarini zarb ettira boshladi. U ellinlarning lotin tili va yozuvidan voz kechib, kushonlar davlati doirasida bohtariy tili va yozuvini joriy qildi. Din sohasida yunon ma’budlarini ilohiylashtirishni ham man etdi.

Bronza, ilk temir va antik davrda yuz bergan yangiliklar tufayli Markaziy Osiyo etnosiyosiy hayotida turkiy ruhiyat, madaniyat va ma’naviy taraqqiyot har jabhada yaqqol ko‘rina boshladi. Antik davrdan boshlab o‘zbek xalqining etnogenezi va davlatchiligi jadal rivojlanish bosqichiga ko‘tarildi. Bunday o‘ziga xos mustaqillik siyosati hatto, ilk o‘rta asrlarda ham, toki arablar istilosigacha davom etdi. Mazkur tarixiy jarayonlar arxeologik va antropologik materiallarda o‘z aksini topdi, uning qiyosiy lokalizatsiyasi kankiya va kangar, xu va rung, tiyek va g‘uz, xunnu va usun kabi turkiy etnik atamalarda ifodalandi. Bu haqda qadimgi Xitoy yozma manbalarida aniq ma’lumotlar bor.

Aynan arxeologik va antropologik izlanishlar tufayli Markaziy Osiyo, jumladan, O‘zbekiston odamzodning ilk bor paydo bo‘lgan hududiga kiritildi. U davrga tegishli qadimgi tosh (paleolit) davri yodgorliklari Farg‘ona vodiysidagi Selung‘ur va Qapchig‘ay, Toshkent vodiysidagi Ko‘lbuloq va Obirahmat, Surxondaryo viloyatidagi Teshiktosh, Zarafshon vodiysidagi Omonqo‘ton va Qo‘tirbuloq, qadimgi Xorazm zaminidagi Qizilnura 1 kabi yodgorliklar misolida o‘rganildi. Jahonning nufuzli olimlarini Obirahmatga yig‘ib, eng qadimiy arxaik yodgorlik bo‘lgan Selung‘urga bag‘ishlangan xalqaro anjumanlar tashkil etildi.

Istiqlol yillarida arxeologlarimiz to‘plangan materiallarni yangicha qarashlar asosida talqin va tahlil qilib, ko‘plab yangi xulosalarni ilgari surdilar. Masalan, qadimgi shaharlarning kelib chiqish ildizlari tadqiq qilinib, ularni xronologik ketma-ketlikda davrlashtirish va tarixiy bosqichlarga bo‘lish ishlari amalga oshirildi. Har bir tarixiy-madaniy markaz kesimida shaharlar genezisi, iqtisodiy-xo‘jalik asosi, tarixiy topografiyasi, suv ta’minoti, mudofaa tizimi o‘rganilib, o‘zbeklarning etnomadaniy qiyofasi, ijtimoiy, siyosiy, diniy ildizlari tahlil qilindi. Bu borada qadimgi shaharlarni yozma manbalar ma’lumotlari bilan lokalizatsiyalash masalalari jiddiy shug‘ullanishni talab etdi. Chunki shaharlar tarixini to‘la-to‘kis yoritish va umumlashtirish shu paytgacha yozma manbalarda o‘z aksini topmagan edi. Sodda qilib aytganda, har bir arxeologik artefaktni “gapirtirish” kerak bo‘ldi.

Qo‘lga kiritilgan arxeologik manbalar tahliliga ko‘ra, O‘zbekiston xronologik ketma-ketlikda uchta hududiy zonaga bo‘lindi. Birinchi zonaga Janubiy O‘zbekiston hududlari; ikkinchi zonaga Janubiy So‘g‘d (Qashqadaryo viloyati), Markaziy So‘g‘d (Samarqand viloyati), G‘arbiy So‘g‘d (Navoiy va Buxoro viloyatlari), qadimgi Xorazm hududlari; uchinchi zonaga Sirdaryoning o‘rta havzasi hisoblangan Toshkent viloyati, Janubiy Qozog‘iston, qadimgi Farg‘ona va Ustrushona hududlari kiritildi.

O‘zbekistonning mahalliy xalqi, o‘zbek millati va uning davlatchiligi ana shu hududlar etnik birliklarining uzoq vaqtlar davom etgan o‘zaro ijtimoiy-iqtisodiy, etnomadaniy aloqalari, siyosiy boshqaruvi va tarixiy mafkurasi bazasida, murakkab etnoslararo qorishuvlar asosida shakllangan.

Xalq va millat tarixi o‘rtasidagi farqlar birinchi bor kitobda o‘z aksini topib, Eron va Turonda o‘tgan tarixiy jarayonlar xronologik ketma-ketlikda obyektiv bayon etildi. O‘zbek xalqining so‘g‘diy, xorazmiy, boxtariy va sak-skif asoslari, turkiy tilli ajdodlarimizning iqtisodiy-xo‘jalik hayoti, etnomadaniy qiyofasi, uning ko‘p etnik komponentligi asoslandi.


Yillar davomida olimlar tomonidan yurtimizda ko‘chmanchi chorvachilikning kelib chiqishi ilk temir davri tarixiy jarayonlari bilan bog‘lab talqin etib kelindi. Biroq keyingi yillarda ushbu tub o‘zgarishlar bundan ming yil avval sodir bo‘lgani aniqlandi. Bunday o‘zgarishlar zamirida uy hayvonlaridan ulov sifatida foydalanishga o‘tish jarayoni yotadi.

O‘tmishda zodagon chorvadorlar yil sayin ko‘payib borayotgan chorva mollarini boqish uchun yangi yaylovlar qidirib, bir joydan ikkinchi joyga ko‘chishga majbur bo‘ladilar. Bu esa bir tomondan qabilalarning unumdor o‘tloqlarga ega chiqish ilinjida o‘zaro nizolashishiga sabab bo‘lgan bo‘lsa, ikkinchi tomondan kundalik hayot uchun kurash jarayonida ikki xil xo‘jalik sohiblarining iqtisodiy jihatdan o‘zaro bog‘lanib qolishiga sabab bo‘ldi. Dastlab natural mol ayirboshlash shaklida namoyon bo‘lgan bunday iqtisodiy, madaniy va siyosiy aloqalar keyinroq tovar-pul munosabatlariga asoslangan bozorning paydo bo‘lishiga olib keldi.

Ibtidoiy urug‘chilik jamoalarining yemirilishi va ilk temir davrining qaror topishi haqida gapirganda, bu davrda Markaziy Osiyoning qadimgi sug‘orma dehqonchilik mintaqalaridagi dastlabki davlat konfederatsiyalari (qadimgi Baqtriya podsholigi, Katta Xorazm, Dayuan podsholigi) yuzaga kelib, ularni rasman kavi (bir necha viloyat hukmdori, podshosi)lar boshqargan. Ko‘chmanchi va yarim ko‘chmanchi chorvachilik mintaqalariga (Qang‘ davlat konfederatsiyasi, Hunnu davlat konfederatsiyasi) esa jabg‘ular boshchilik qilgan. Arxeologlarimizning tinimsiz izlanishlari natijasida ana shunday ilk davlat boshqaruv tizimlari, ular o‘rtasidagi iqtisodiy va etnomadaniy aloqalarning tub mazmun-mohiyatiga aniqliklar kiritildi.


– Shubhasiz, arxeologiya – murakkab soha. Shu bois, bu borada kamchilik va muammolar ham bo‘lishi tabiiy. Xo‘sh, bugun arxeologlarimizni qaysi masalalar ko‘proq o‘ylantirmoqda?

– Mustaqillik davrida akademik ilm-fan, jumladan, arxeologiyaga e’tiborni ham ikki bosqichga bo‘lish mumkin. Dastlabki bosqichda mamlakatimizdagi iqtisodiy qiyinchiliklar va boshqa sabablar tufayli akademik ilm-fan inqirozli davrni boshidan kechirdi. Quvonarlisi, keyingi yillarda muhtaram Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning ilm-fan sohalarini rivojlantirishga katta e’tibor qaratishi natijasida milliy arxeologiya sohasida ham butunlay yangi davr boshlandi. Qisqa vaqt ichida katta muammolar bartaraf etilib, sohada xayrli o‘zgarishlar amalga oshirilmoqda. Avvalo, ilmiy-tadqiqot institutlari xodimlariga davlat byudjetidan oylik maosh to‘lash tartibi joriy qilindi. Mavjud laboratoriyalarni zamonaviy ilmiy-texnika vositalari bilan jihozlashga kirishildi. E’tibor va rag‘bat sustligi tufayli boshqa sohalarga o‘tib ketgan malakali arxeologlar qaytadan ishga jalb etilib, hatto Toshkent shahrida Milliy arxeologiya markazi tashkil etilgani ayni muddao bo‘ldi. Olimlarimiz arxeologik izlanishlar olib borish uchun birlamchi ilmiy-texnika asbob-uskanalari bilan ta’minlanganini ham alohida ta’kidlashim kerak. Soha bo‘yicha maxsus himoya kengashlari tashkil etilib, yuqori malakali kadrlar tayyorlashga katta e’tibor qaratilmoqda.



Ayni paytda Milliy arxeologiya markazi akademik Yahyo G‘ulomov nomidagi Samarqand arxeologiya instituti bilan birgalikda 2030-yilgacha ilmiy sohada amalga oshiriladigan ishlar rejasini tuzib, hal etilishi zarur bo‘lgan masalalar ustida bosh qotirilmoqda.

Muammolar haqida gapiradigan bo‘lsam, birinchi galda mamlakatimizdagi mavjud barcha arxeologik yodgorliklarni o‘rganib chiqib, sho‘rolar davrida chala qolgan ko‘p jildlik “Arxeologik yodgorliklar ro‘yxati”ni tuzish ishlarini oxiriga yetkazishimiz kerak. Bu yo‘nalishda qator tumanlar va viloyatlar bo‘yicha bir necha jilddan iborat ro‘yxat (svod) tayyorlangan bo‘lib, 1990-yilgacha O‘zbekistonda 15 mingdan ortiq arxeologik yodgorlik aniqlangan. Mustaqillikning ilk yillarida Arxeologiya institutining rahbariyati olti marta o‘zgardi. Ular mahal-



liy hokimiyatning dastyoriga aylantirildi. Ro‘yxat tuzish va uni chop etish masalasida moliyaviy qiyinchiliklar yuzaga keldi. Tarixiy obidalarning qonuniy egasi bo‘lgan Madaniyat vazirligi mutasaddilari esa bu masalaga sovuqqonlik bilan qaradi. Ko‘plab fermer xo‘jaliklari esa ekin maydonlarini kengaytirish ilinjida amalda tarixiy obyektlarni yo‘qotish bilan shug‘ullandi. Buning oqibatida hozirgi kungacha yuqorida tilga olingan yodgorliklarning atigi uchdan bir qismi saqlanib qolgan. Ularni muhofaza qilishga mo‘ljallangan qonun va me’yoriy hujjatlar qabul qilingan bo‘lsa-da, ko‘pchilik amal qilmayapti.

Yurtimizdagi har bir viloyat va tarixiy-madaniy o‘lkaning Afrosiyob va Axsikent kabi ulkan etalon poytaxt yodgorliklari mavjud. Shu bois respublikamizning arxeologik salohiyatini teng taqsimlab, ularda uch fasl davomida to‘xtovsiz ishlab turadigan kompleks ekspeditsiyalar tashkil etish lozim. Shu orqali etalon yodgorliklarni chuqur o‘rganish, hududlardagi noyob yodgorliklarning ro‘yxatini qat’iy tartibga keltirish va kelgusida sayyohlikni rivojlantirish choralarini belgilash mumkin. Bu borada bizning tajribamiz bor. O‘tgan asrning yetmishinchi-saksoninchi yillarida Arxeologiya institutini boshqargan kezlarimda shunday yo‘l tutganmiz. Afsuski, bunday ilmiy ishlanmalar keyinchalik davom ettirilmadi.

Muhtaram Prezidentimiz yurtimizdagi jahon turistlari e’tiborini o‘ziga tortuvchi noyob arxeologik obyektlarni ochiq osmon ostidagi muzeylarga aylantirish tashabbusini ilgari surib, bu borada tegishli farmon va qarorlarni qabul qildi. Biz, arxeologlar ham ushbu muhim tashabbusni qo‘llab-quvvatlab, Madaniy meros agentligi bilan hamkorlikda barcha viloyatlar hududida kamida uch-to‘rttadan noyob arxeologik yodgorlikni turizm obyektiga aylantirish borasida izlanishlar olib borishimiz kerak edi. Afsuski, bu masala yechimida ham jiddiy muammolar bor. Avvalo, Madaniy meros agentligida barcha turdagi arxeologik yodgorliklarni ochiq muzeyga aylantirish uchun zarur bo‘lgan malakali mutaxassislar yetishmaydi. Buning ustiga, keyingi 15-20 yil davomida aksariyat talabalar arxeologiya sohasi bo‘yicha bilimli bo‘lish uchun emas, balki diplom olish uchun o‘qidi. Bunday noto‘g‘ri yondashuv umumiy o‘rta ta’lim maktablarida ham ildiz otgan...

– Keyingi vaqtlarda ijtimoiy tarmoqlarda tez-tez arxeologik obyektlarning qarovsizligi yoki bila turib ularga ziyon yetkazish bilan bog‘liq noxush xabarlarga duch kelyapmiz. Bu masalada kim aybdor?

– Bu nihoyatda jiddiy muammo. Men ushbu mavzuda dalillarga asoslangan bir nechta maqolalar bilan matbuotda chiqishlar qildim, telekanallar orqali tanqidiy mulohazalarimni bildirdim. Lekin qani ularga munosabat? Bu haqda gapiraverib charchadim. Namangan viloyatining Norin tumanida joylashgan qadimgi Haylam shahristoni bosh ibodatxonasini ochib o‘rganib, ushbu noyob arxeologik yodgorlikni ochiq osmon ostidagi muzeyga aylantirish haqidagi tashabbusimiz ham mutasaddilarni qiziqtirmayapti. Hozir to‘qson yoshdaman, lekin zimmamdagi mas’uliyat tufayli ushbu obyektni tashlab ketolmayman. Bot-bot va’dabozlik, sovuqqonlik va mas’uliyatsizlik kabi holatlarga duch kelib afsuslanib ketaman.

Mahalliy rahbarlar ko‘pincha noyob arxeologik obyektlarimizning barbod qilinishiga panja orasidan qarashmoqda. Nega joylarda hanuzgacha fermer xo‘jaliklariga arxeologik obyektlarni o‘zlashtirish huquqini beradigan qarorlar chiqarib berilyapti? Jamoatchilik qayoqqa qarayapti? Biz nima uchun shonli tariximizga, ajdodlarimizdan meros qolgan tabarruk qadamjolarga bunchalik befarqmiz? Bebaho yodgorliklarni ko‘z o‘ngimizda ayovsiz toptayotgan, tomorqasiga qo‘shib olayotgan, molxonaga aylantirayotgan qo‘ni-qo‘shnimizga tanbeh berish, ularni insofga chaqirish shunchalik qiyinmi?..

Shular haqida o‘ylaganimda o‘zimni qo‘yarga joy topolmayman. Bunday odamlarga ham xudo insof bersin, deyman. Nafsilamrini aytganda, bunday noxush holatlarga qarshi kurashish faqatgina davlatning ishi emas, birinchi galda siz, men, O‘zbekistonning har bir fuqarosi tarixiy, madaniy merosimiz namunalarini ko‘z qorachig‘idek asrab-avaylashni o‘zining burchi deb bilishi kerak. Ana shundagina bunday muammolarga butunlay barham berish mumkin deb o‘ylayman.

– Muhtaram domla, siz juda muhim masalalarni tilga oldingiz. Nasib etsa, bu mavzudagi muloqotlarimizni yana davom ettiramiz. Fursatdan foydalanib, qimmatli fikrlaringiz uchun sizga minnatdorlik bildiramiz.

Humoyun AKBAROV suhbatlashdi.

QUTLUG‘ SANA

Mening ko‘rkim – ko‘ngil



TAVALLO

Oq yo‘rgakka o‘ragansan o‘zing bizni,
Ham oq yuvib-taragansan o‘zing bizni.
Beshigimiz uzra bedor ona bo‘lib,
Kunimizga yaragansan o‘zing bizni.
Fidoying bo‘lgaymiz seni, O‘zbekiston,
Hech kimga bermaymiz seni, O‘zbekiston!..

Qalqoning bor, kim qasd qilsa gar joningga,
Alpomishlar ruhi yor har o‘g‘loningga.
Asragaymiz giyohing ham gulday o‘pib,
Yovlar yaqin yo‘lolmagay qo‘rg‘oningga.
Adoying bo‘lgaymiz seni, O‘zbekiston,
Hech kimga bermaymiz seni, O‘zbekiston.

Tuzing totib, unutganlar xor bo‘ladi,
Ko‘zlariga ikki dunyo tor bo‘ladi.
Shodon daming ko‘rolmagan yurtfurushlar
Bir kun bir kaft tuprog‘ingga zor bo‘ladi.
Yoningda turgaymiz seni, O‘zbekiston,
Hech kimga bermaymiz seni, O‘zbekiston!..

Gul ko‘ringan dashtingdagi giyoh-xasdir,
Soddadil-u ulug‘vorlik senga xosdir.
Sevamizki, cho‘llaring ham bizga jannat,
Tuprog‘ing ham Makka misol muqaddasdir.
Onadek ko‘rgaymiz seni, O‘zbekiston,
Hech kimga bermaymiz seni, O‘zbekiston!

MALAGIM

(Ushbu she’r matbuotda ilk bor e’lon qilinmoqda)

Kimga berdim jondan sevgan malagimni
Chaman ichra so‘ldi gulim, so‘ldi gulim.
Qon yig‘latdim shundoq ham qon yuragimni,
O‘z dilimning dilozori bo‘ldim o‘zim.

Yot yor quchdim go‘shangada ko‘rmay turib,
Yolg‘izimsan dedim ismin so‘rmay turib,
Tunim kechdi oy botguncha xayol surib,
Gul umrimning gunohkori bo‘ldim o‘zim.

Hamma odam bir odamdir menga endi,
Ikki dunyo bir qadamdir menga endi,
Suydim, suymay nima g‘amdir menga endi,
Suymaganning suymas yori bo‘ldim o‘zim.

* * *

Sevgi bamisoli lolaqizg‘aldoq,
Teginmay bo‘lmaydi,
Tegsang to‘kilar.
Alvon bir gumbazning o‘rtasi oppoq...
Buni bir men-u bir kapalak bilar.

Men o‘sha gumbazga boshimni suqdim –
Qizil ko‘ylakli bir qizgina kular:
Bunday boqma menga, uqdingmi? Uqdim...
Buni bir men-u bir kapalak bilar.

So‘ng u oqqanotim uchdi-yu ketdi,
Uning umri bir kun – choshgohda o‘lar.
Momo yer aylanib manzilga yetdi,
Buni bir men-u bir charxpalak bilar...

Sevgi bamisoli g‘arq pishgan shotut,
Teginmay bo‘lmaydi,
Tegsang to‘kilar.
Sevdingmi, yuz yil kut,
Sevmasang unut!..
Bunisin bir men-u bir malak bilar.

U meni kutadi yuz yildan so‘ng ham.
Ko‘r bo‘lib qolguncha yo‘lga termular...
Sevgi – mening barcha dardimga malham
Buni bir o‘zim-u bir yurak bilar.

XAYOL

Xayol qanday yaxshi,
Akangga o‘xshar.
O‘ynatar yelkaga ko‘tarib olib.
Bu parvoz so‘ngida yig‘lashing mumkin
Sog‘ingan onangning oldida qolib.

Xayol qanday yaxshi,
Xayol qanday soz.
Qo‘shiqlar sochadi bosgan izingga.
Bir kechada borib aytishing mumkin
Izhori dilingni suygan qizingga.

Beg‘ubor bolalik yulduzday olis,
Ammo xayol uchun u ham bir qadam.
Tarsillab qovunlar yorilgan poliz,
Sen yolg‘iz yotibsan ostida bodom.

Gullari to‘kilar o‘sha bodomning,
Kapalakday kelib yuzingga qo‘nar.
Xayol ham tug‘ishgan ukasi odamning,
Qayoqqa yuborsang g‘ing demay jo‘nar.

Ko‘ksida xayoling tursa yig‘ilib,
Quyoshni uyg‘otib kelsa bo‘ladi.
Shoirlarning bari yerda tug‘ilib,
Osmon-u falakda o‘ladi.

DUNYO

Menga boqib miyig‘ida kulgan dunyo,
Meni tuproq, o‘zni osmon bilgan dunyo,
Seni momom cho‘miltirgan yuvib-tarab,
Seni bobom tetapoya qilgan, dunyo!..

Ey o‘tmishdan o‘tgan kunin so‘ramagan,
O‘zbek borsa kim qo‘liga qaramagan?
Botirlari qul bo‘lishga yaramagan,
Suluvlari bo‘yniga osilgan dunyo!

Moziy manim borimni yod etib siylar,
Dilin obod, ruhlarin shod etib siylar.
Shoh G‘azzoliy, shoh Tabriziy, shoh Rumiylar...
Chorig‘ini yelkasiga ilgan dunyo.

Sen sig‘ingan – o‘sha jondin ortiq senga
Tojmahal ham bir bobomdan tortiq senga.
Kulma menga, iddaolar qilma menga –
To‘qqiz kunda Temur bosib olgan dunyo!

Yuzlaringni yoritgan shu sharq ziyosi,
Dardlaringni aritgan shu sharq ziyosi.
Sinoning etagin o‘pib Ovruposi,
Amriqosi Beruniydan qolgan dunyo.

Mening ko‘shkim ko‘kda – unga yetmaydi qo‘l,
Mening ko‘rkim – ko‘ngil, unga eltgay bir yo‘l,
Tirikman men, kel, istasang muridim bo‘l –
Sen Islomdan iymon darsin o‘rgan, dunyo!..

* * *

Mana shu – men tug‘ilgan go‘sha,
Uyga yetdim – ariq hatladim.
Shu yerlik bir qizga yoqay deb
Uzun-uzun she’rlar yodladim...

Yodladim-u aytolmay unga,
Bag‘ri dilim to‘ldi dog‘ bilan.
Osmonlarga termulib yotdim
Tomda singlim qizg‘aldoq bilan.

Osmon deganlari keng ekan,
Bo‘yi bo‘yim bilan teng ekan.
Bu dunyoda dardingiz bo‘lsa,
Yulduzga baxtliman deng ekan...

Hamma yulduz menga mo‘ltirar,
O‘lsam meni savol o‘ldirar.
Ayvondagi qaldirg‘ochlardek
Ular tizilishib o‘ltirar.

Qarang, qanday baxtli bolaman!
O‘ylarimda gullar uxlaydi.
Ko‘zlarimda jaranglab kulgu,
Yuragimda... yo‘lbars... yig‘laydi.

QUSHLAR HAM YIG‘LAR

Terlar oqdi suv bo‘lib bizdan
Va gursillab yiqildi terak...
Aka, bizning qilmishimizdan
Tunda qushlar yig‘lasa kerak.

Ona chumchuq aylanib ketmas,
Ko‘ngliga qil sig‘masa kerak.
Eski indan tashib borib xas,
Yangi inda yig‘lasa kerak.

Baland bo‘lar uyimiz tog‘dek,
Ayvonida ustun ul terak.
Biz yasharmiz, ko‘nglimiz chog‘dek,
Shunda qushlar yig‘lasa kerak...

MANZARA

Bedapoya to‘ridagi juftin qidirib,
Sayray-sayray jimib qoldi bedana dilgir.
Suvsumbulni va’dasiga ko‘mib, ko‘ndirib,
O‘ynatgani olib ketdi irmoq qaygadir.

Qir tomondan poda qaytib kelarkan qator
Kumush sohil bo‘ylariga changlar yastanib,
Qishloqning eng chekkasidan bahaybat chinor
Ufq tarafga qarab qo‘ydi xavotirlanib.

Quyosh osmon etagiga osilib mana,
Bir xo‘rsinib, ko‘zdan g‘oyib bo‘ldi-yu keyin
Qo‘shni qizning havasini keltirib yana
Tolko‘chaga suv sepishni boshladi kelin...


Muhammad YUSUF,
O‘zbekiston xalq shoiri

She’r – inson qalbining aks sadosi. Bu sado tuyg‘un va hissiyotlarga boy bo‘ladi. Shuning uchun boshqalar shuuri, yuragiga ta’sir qiladi. Taniqli o‘zbek shoiri Muhammad Yusuf she’rlarini yurtimizda ayniqsa yoshlar juda sevib, ardoqlab o‘qishadi, yod olishadi. Turli anjumanlar, bayram va to‘ylar shoirning she’rlari bilan ziynatlanadi.

Yaqinda Turkmaniston poytaxti Ashxobod shahrida taniqli shoir va tarjimon Ismoil Tag‘an tomonidan Muhammad Yusuf she’rlari turkman tiliga tarjima qilinib, “Biz baxtli bo‘lamiz...” nomi bilan nashr bo‘ldi. Tabiiyki, bu asar shoirning 70 yillik muborak yoshi uchun munosib sovg‘adir.

“KO‘K YORISHGAY TUG‘ISHGANLAR TOPISHGANDA...”

Muhammad Yusuf she’rlari turkman tilida



Muhammad Yusufning barcha she’rlari o‘zining soddaligi bilan ulug‘vor ta’sir quvvatiga ega. Shoir o‘zini anglagani bois ko‘p she’rlarida o‘z “meni”ga diqqatni qaratadi:

Mendan nima qolar,
Ikki misra she’r,
Ikki sandiq kitob,
Bir uyum tuproq...

Muhammad Yusufdan she’riyat muxlislari uchun “ikki misra she’r” emas, ko‘plab she’riy majmualar meros bo‘lib qolgani va bugun ular qardoshlarimiz qalbidan ham o‘rin olayotgani quvonarli holdir. O‘zidan bu olamda nima qolishini va o‘zi bilan u dunyoga yaxshi, ezgu, bebaho amallarni olib ketishini teran anglagan insongina boshqalar qalbidan joy ola biladi. Bunday shoirlar o‘z elini, o‘z tilini, o‘z onasini yaxshi ko‘radi; o‘zi anglagan haqiqatni ochiq-oydin yozadi. Shu ma’noda, Muhammad Yusuf she’rlarida o‘zbek xalqining turmush tarzi, bir insonning yurak dardi, hayot haqiqati aks etadi. Shoir ijodida ona Vatan, uning ulug‘vorligi, qadimiyligi, shon-sharafi va bugungi hurriyatistiqloli madh etiladi. Ota-ona, do‘st qadri, o‘zbekona milliy urf-odatlar, qadriyatlar mavzusi badiiy talqin qilinadi. Shoirning “Do‘ppi”, “Belbog‘”, “To‘n haqida she’r”, “Ona tilim”, “Oq tulpor” va boshqa qator she’rlari xalqona uslubi bilan ajralib turadi. U ishq-muhabbatni o‘ziga xos ravishda tarannum qiladi. Shu bois juda ko‘p san’atkor-hofizlar uning she’rlarini qo‘shiq qilib aytishdi. Umuman, Muhammad Yusuf she’riyatining umumpafosi xususida ko‘p yaxshi fikr-mulohazalar bildirish mumkin...

Turkman tilida nashr etilgan “Biz baxtli bo‘lamiz...” to‘plamiga kiritilgan she’rlarni o‘qish asnosida unda Muhammad Yusuf lirikasiga xos barcha shakl va mazmun fazilatlari saqlab qolinganiga guvoh bo‘lish mumkin. Bu tabiiyki, tarjimonning zamonaviy o‘zbek she’riyatini yaxshi bilishi bilan bog‘liq. Zero, men Ismoil Tag‘anning ko‘plab o‘zbek shoirlarining asarlarini mahorat bilan turkman tiliga tarjima qilgani va ularni “Diydor” nomi ostida bir kitobda jamlaganidan xabarim bor. “Diydor” tarkibidan Muhammad Yusufning ham bir qism she’rlari o‘rin olgan edi. Hajman kattagina “Biz baxtli bo‘lamiz...” kitobi esa o‘sha tarjima va tajribalarning mantiqiy davomidir.

Tug‘ishgan qardoshlarning qalb nidolaridan, she’rlarida ifodalangan dard-u quvonchlaridan xabardor bo‘lib ta’sirlanish, tabiiyki, yurakda bir yorug‘lik paydo qiladi. Bunday she’rlar ellarni ellarga, dillarni dillarga mustahkam bog‘laydi.

Muhammad Yusuf aytmoqchi:

Ko‘k yorishgay tug‘ishganlar topishganda,
Kengashganga tor dunyolar keng bo‘ladi.
Bo‘lar elda botirlar ot chopishganda,
Tog‘lar cho‘kib to‘pig‘iga teng bo‘ladi.
Quchoq ochib diydoriga chiq, Turkiston,
Tarqab ketgan bolalaring yig‘, Turkiston!

Do‘stlik, tug‘ishganlik, kengashish, botirlik – bular gohida tog‘lardan ham yuksak bir martabani egallaydi. Nazarimda, mahoratli tarjimon va shoir Ismoil Tag‘an uchun ham o‘z ko‘ngliga yaqin shoirning hissiyotlari, qardoshlarning o‘zaro og‘zibirligi va botirligi muhimdir. Shu yo‘lda barakali va jiddiy ijod qilayotgan Ismoil Tag‘an qalamiga quvvat tilaymiz.

Bahodir NURMUHAMMAD

ADIBLAR XIYOBONIDA

“MILLIY QADRIYATLAR SAYLI” haftaligi boshlandi

Tadbirda O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vaziri Qo‘ng‘irotboy Sharipov yangilanayotgan O‘zbekistonda yoshlar uchun zarur barcha imkoniyatlar yaratilayotganini ta’kidladi.

Ochiq osmon ostidagi tadbir davomida oliy ta’lim muassasalari tomonidan tashkil etilgan hududlarning milliy urf-odat va qadriyatlari ko‘rgazmalari, qiziqarli konsert dasturlari tadqim etildi.

Mazkur tadbirda O‘zbekiston xalqaro islom akademiyasi vakillari ham faol ishtirok etib, talabalar Surxondaryo viloyatining folklor, xalq og‘zaki ijodidan yorqin va betakror namunalarni ijro etdilar.

Adiblar hayoti va ijodiga bag‘ishlangan sahna ko‘rinishlari namoyish etildi.

G‘azal va she’rlar aytildi. Kuyqo‘shiqlar yangradi. Jonajon O‘zbekistonimiz hududlarining milliy urf-odat, an’ana va qadriyatlari tarannum etildi.


N.USMONOVA,
O‘zA muxbiri



XUSHXABAR

Keyingi yillarda milliy adabiyotimizning sara namunalari ko‘plab xorijiy tillarga tarjima qilinib, chet ellik kitobxonlar qo‘liga ham yetib bormoqda. Xususan, o‘zbek romanchiligining ilk namunasi hisoblangan “O‘tkan kunlar” asari yaqinda arab tiliga o‘girilib, Qohira shahrida “O‘tkan kunlar: Turkistondagi achchiq sevgi qissasi” nomi bilan nashr etildi.

Qayd etish kerakki, ushbu nashrni amalga oshirishda romanning arab imlosiga asoslangan o‘zbek yozuvidagi ilk nusxasi hamda uning rus va ingliz tillaridagi tarjimalaridan foydalanilgan.



“O‘TKAN KUNLAR” ARAB TILIDA

Abdulla Qodiriy tavalludining 130 yilligi keng nishonlanayotgan kunlarda mamlakatimizning Misr Arab Respublikasidagi elchixonasida arab tilidagi “O‘tkan kunlar” romanining taqdimoti o‘tkazildi. O‘zbekistonning Misr Arab Respublikasidagi Favqulodda va Muxtor elchisi Mansurbek Qilichev tadbirda ishtirok etgan ushbu mamlakat ilmiy va adabiy jamoatchiligi vakillari, ommaviy axborot vositalari xodimlariga keyingi yillarda yurtimizda kitobxonlikni rivojlantirish, mumtoz va zamonaviy adabiyotimizning bebaho namunalarini ommalashtirish borasida amalga oshirilayotgan ishlar haqida ma’lumot berib, atoqli adibimiz Abdulla Qodiriy ijodining o‘zbek xalqi milliy ma’naviyati yuksalishida alohida o‘rin tutishini ta’kidladi.

Kitob taqdimotida Abdulla Qodiriy uy-muzeyi rahbari, ulug‘ adibning nabirasi Xondamir Qodiriy, asar tarjimoni, professor Muhammad al-Jibali, Misr-O‘zbekiston do‘stlik jamiyati raisi Magdi Za’bal “O‘tkan kunlar” romanining fazilatlari haqidagi fikrlarini bayon qilishdi. Jumladan, ushbu bebaho asarning arab tiliga tarjima qilinishi o‘zbek xalqining betakror madaniyati, qadriyat va an’analarini Yaqin Sharq xalqlari orasida keng targ‘ib etishda katta qadam bo‘lishini qayd etishdi. Asar tarjimoni kelgusida ushbu yo‘nalishdagi izlanishlarini davom ettirib, o‘zbek adabiyotining sara namunalarini arab kitobxonlariga yanada kengroq tanishtirish istagida ekanligini ma’lum qildi.

“O‘tkan kunlar”ning arabcha nashri muqovasida uning 1925-yildagi ilk nashriga ishlangan suratdan foydalanilgan. Mintaqadagi eng yirik “Dor ul-maorif” nashriyotida chop etilgan ushbu romanni Misrdagi nufuzli kutubxona va universitetlar, ta’lim-tarbiya va madaniyat muassasalari hamda Qohira shahridagi xorijiy diplomatik korpus vakillariga tarqatish ko‘zda tutilgan. Yaqin vaqtlarda mazkur roman tarjimasini boshqa arab davlatlarida ham nashr etish rejalashtirilmoqda.

BIZGA MAKTUB

O‘ZINI JAMLASA, HAR ODAMDA LASHKAR KUCHI BOR

Ko‘z ko‘ngil o‘rganib qolganlardan osongina voz kecholmaydi. “Qadrdon” so‘zining jozibasi, kuchi ham shunda. Shu ma’noda, “O‘zbekiston adabiyoti va san’ati” gazetasining faoliyati tugatilib, o‘rniga “Jadid” deb nomlangan yangi nashrning chop etila boshlagani munosabati bilan ijtimoiy tarmoqlarda bildirilgan ba’zi fikrlarni og‘riqli qabul qilish kerak emas, deb o‘ylayman. Nimalarnidir tushuntirib, nimalarnidir aytib ularga javob berib o‘tirish ham shart emas, nazarimda. Yaxshisi, bor kuchni yangi gazetani tom ma’noda o‘quvchilar uchun sevimli minbarga aylantirishga sarflagan ma’qul. Shuning o‘zi bildirilayotgan fikrlarga munosib javob bo‘ladi.

“Jadid”ning uyimizga kelgan bir necha sonini o‘qib chiqib, men yuqoridagi gapni aytmasam ham, gazeta jamoasi xuddi shu yo‘lda – to‘g‘ri yo‘lda ekanligini angladim.

So‘zliklarimizdagi barcha so‘zlarni o‘rni-o‘rnida ishlatsak, har biri olmosday yarqiraydi. Ammo “haqida” degan so‘z (aslida, bu so‘z ham emasku-ya!) mening g‘ashimni keltiradi. Nima uchun asarning o‘zi turganda, u “haqida” yozilgan narsalarni o‘quvchiga taqdim qilishimiz kerak, deb jahllanardim ko‘pincha. Axir hech qaysi manba original bo‘lolmaydi-ku. Shu ma’noda, yangi nashrimizda Abdulla Avloniyning “Madaniyat to‘lqunlari”, Said Ahroriyning “Fikr tarbiyasi” kabi maqolalarining asli berilganidan xursand bo‘ldim. Chunki gazetxon uchun bunday maqolalar shunchaki axborot manbayi bo‘lmaydi. “Haqida”ni o‘qiganday kimningdir fikrini qabul qilib qo‘ya qolmaydi. Fikr maydoniga o‘zi kiradi. Xalqona aytganda, kallasini ishlatishi kerak bo‘ladi. Tushunish, anglash, xulosa chiqarish... Bu jarayonlarda tafakkur charxlanadi, o‘sadi.

Biz bugun vatanparvarlik haqida ko‘p gapiryapmiz. Darhaqiqat, Vatanni chin vatanparvarlikkina buyuklik cho‘qqisiga ko‘taradigan qudratdir. Lekin bu tuyg‘u “hech nima”ning ustida paydo bo‘lmaydi. Buning uchun Vatan sen joningni fido qilishga arziydigan muqaddaslik ekanini bilishing kerak. Bilishning eng ishonchli vositalaridan biri – o‘zlikni tanish. “Jadid” gazetasi sahifalaridagi “Muxtoriyat loyihasi”, “Jizzax qo‘zg‘oloni”, “Kurashxona qo‘zg‘oloni” kabi maqolalar ana shunday eng kerakli “bilish” uchun xizmat qiladi. Bunday maqolalar ko‘nglimizni “O‘zbek xalqi qullik bo‘yinturug‘ini bo‘yniga osongina kiyib qo‘ya qolgan” degan tavqi la’natdan xalos etadi. O‘zimizni o‘zimizga yaxshi ko‘rsatadi.

Bir necha jasoratli kitoblarni nashr qilib, xususiy nashrlardagi imkoniyat maydonlarini dadil namoyon qilayotgan Sanjar Nazar, amal kursisi ko‘nglidagi go‘zal dunyoga soya tushirmagan ajoyib rassom Akmal Nur bilan suhbatlar ham soxtalikdan uzoqligi, samimiyati bilan ko‘nglimga o‘tirishdi. Yoshlarning she’riyati, nasriga sahifalar ajratilganligi bizga tanishish maqsadida yaxshi bo‘lsa, o‘zlari uchun shunday nufuzli nashrda chop etilganligi quvonchli. Iste’dodiga ishonchlari ortadi. “Shoirman, adibman”, degan da’volari yuqorilaydi. Bu – yaxshi tuyg‘u.

Gazetaning tili haqida boshqacha bir mehr bilan gapirish mumkin. “Ishonchni tiriltirish kerak!”, “Uyg‘on, bolam!” sarlavhalarining o‘ziyoq o‘quvchini sergak torttiradi. Birodarlarimiz Xurshid Do‘stmuhammad, Erkin A’zam, Nazar Eshonqul kabi qarashlarida sobit insonlarning nashr davrasiga yig‘ilgani ham ma’qul ish. Kimgadir yoqish uchun emas, o‘ziga yoqadigan gaplarni ayta oladigan bunday shaxslarga ko‘proq minbar berilsa, gazetaga ham, gazetxonga ham foyda. “Qachon yo‘limizni munavvar qiladigan ilmli yo‘lboshchilarga quloq tutamiz?”, “Yerning uvolidan qo‘rqdi”, “Darsni buzishga hech kimning, hatto, hokimning ham haqqi yo‘q” ... Maqolalarga jon berib turgan bunday gaplar gazetalardagi o‘quvchini o‘zidan itaradigan siyqalikdan uzoqroqqa – boshqacha bir havolarga olib ketadi.

O‘qish jarayonidagi qoniqish bilan birga menda bir necha takliflar ham paydo bo‘ldi. Balki, bu takliflarim nashr uchun yangilik emasdir, agar shunday bo‘lsa, uzr. (Menda ayni chog‘da yugurib ko‘chaga chiqib gazeta olib kelish imkoniyati yo‘qligi, chop etilgan barcha sonlarni o‘qiy olmaganimni hisobga olib uzrimni qabul qilarsizlar, degan umiddaman).

Tariximizning oq dog‘laridan yana biri – “bosmachilik” deb noto‘g‘ri atalgan milliy ozodlik harakati... Albatta, bu butunlay ochilmagan qo‘riq emas. Lekin harakatning yirik rahbarlarini bor enibo‘yi bilan ko‘rsatish kerak. Shermat qo‘rboshi, Ibrohimbek, Madaminbek, Ergash qo‘rboshi, Xurram qo‘rboshi... Xatolari, jasorati... Mag‘lublik sabablari...


Har bir davrning, har bir sohaning o‘z jadidlari bo‘lgan... Masalan, men Cho‘lpon Ergash, Asqar Qosimov kabi yetmishinchi yillar adabiyotida o‘ziga xos o‘rni bo‘lgan, uncha-munchalar yuraksinib aytmagan gaplarni ayta olgan shoirlarni bilaman. Ular ijodiga ham joy berilsa, yomon bo‘lmasdi.

Humoyun Akbarovning “Bizni qiynayotgan savollar” sarlavhali maqolasini o‘qidim. Bunday savollar bugunning to‘lqinlarida yuzaga chiqib turibdi. Nimaga xalq ta’limiga shu qadar e’tibor berilayotgan davrda ham maktablarda (ayrim maktablarda emas, men yoppasiga maktablarimizni nazarda tutyapman) sifat o‘zgarishi baland emas, nega bitiruvchilar ota-onasining puli bilan repetitorga qatnagandan so‘nggina oliy o‘quv yurtlariga kira olishyapti? Maktab kuchsizmi? Qanday monelik bor? Nimaga o‘zimizda ba’zi murakkab operatsiyalar amalga oshirilayotganiga qaramay, ba’zi fuqarolarimiz pulxaltasini ko‘tarib Hindiston, Rossiya, yana allaqayerlarga chopyapti... Ishonchsizlik nimadan? Nimaga mamlakatimiz rahbarining o‘zi “Menga devorning yuzasini ko‘rsatib ovora bo‘lmanglar, narigi yog‘ida nima borligini bilaman”, deb talab qilib turgan bo‘lsa-da, xo‘jako‘rsinlik, yasamalikka butunlay chek qo‘yilmayapti? Aholimizning aksariyat qismida nega xo‘jako‘rsinlikka mayl bor?

Bunday savollar oz emas... Menimcha, soha mutasaddilari, hatto eng katta rahbarlarigacha yuzma-yuz muloqot qilish ayni muddao bo‘lardi. Niyat – birovni qoralash, nimalarnidir fosh qilish emas, balki jamiyatning yurak zarblarini bildirish, rostlikka yanayam yaqinlashish. O‘sha rahbarlarning ham ehtimol dil-dilidan bo‘ladigan suhbatlarga ehtiyoji bordir? Bir xildagi odatiy savollardan bezgandir? Oydin Yo‘ldosheva, Muhayyo Pirnafasova kabi (barcha mualliflar ham xuddi ulardek alohida ajratib ko‘rsatishga arziydi) odamlarning yuraklari qulfini ocha oladigan mualliflarni yuborish kerakdir ular huzuriga? Bunday savollarni o‘rtaga qo‘yishga nashr rahbarining ham ma’naviy huquqi bor, deb o‘ylayman: deputat, xalq shoiri... Boz ustiga, gazeta sahifalaridan sezilib turgan bosh muharrirning o‘tkir didi, dadilligi ham bunday fikrni aytishga asos beradi.

Turkiy dunyo birligi, o‘zimizni shu dunyoning bir qismi deb tasavvur etishimiz, bu dunyoning yana ham jipslashishiga xizmat qilish (bu jadid bobolarimizning ham orzusi bo‘lgan, bilasiz) masalasiga ham ko‘proq e’tibor qilinsa...

Yana o‘zimizda bo‘layotgan ilmiy kashfiyotlardan aholining bu boradagi xabardorligini oshirishga harakat ko‘proq bo‘lsa... Axir, butun umr bobolarimizning kashfiyotlari bilangina faxrlanib yurolmaymiz-ku... Bugun ham dunyoga ko‘rsatsa bo‘ladigan ixtirolarimiz bordir. Modomiki, “Jadid” gazetasi jadid bobolarimizning fikrni ma’rifat bilan o‘zgartirish orqali jamiyatni yangilashdek vazifani



zimmasiga olgan ekan, unga begona mavzu, begona maydon yo‘q. Yurtga tegishli og‘riq – uning og‘rig‘i, quvonch – uning quvonchi. Barcha zamonlarda, shu bugun ham shaxs darajasiga ko‘tarilgan insonlarning faoliyatiga alohida e’tibor qaratilsa, ayniqsa, qiyinchiliklarni yengib o‘tishdagi sabr-matonatiga urg‘u berilsa, gazeta yutadi. Chunki baland ovozda gapirsa bo‘ladigan ezgulik eng qiyin mashaqqatlardan so‘ng o‘rtaga keladi. Odamlar ozod yashashning oson yashash emasligini bilishlari kerak.

Men sakson sakkiz yoshning qariyb oltmish besh yildan oshiqrog‘ini millat ozodligi, shaxs mustaqilligi, haqiqat ustuvorligi yo‘lida baholi qudrat xizmat qilib kelayotgan bir ziyoli sifatida ishini sevib, chinakam sadoqat bilan mehnat qilayotgan jamoaga salomatlik tilayman. Qalamingizga quvvat yor bo‘lsin. Haqiqat mezoningiz, Vatan mehri qudratingiz, buyuk millat bo‘lish orzusi maqsadingiz bo‘lishini istayman.

Sizlarga mehr bilan
Miraziz A’ZAM

UCHRASHUV





MA’RIFAT ULASHAYOTGAN ADIBLAR

Shu kunlarda mamlakatimizdagi barcha oliy ta’lim muassasalari hamda umumta’lim maktablarida taniqli yozuvchi va shoirlar ishtirokida “Ma’rifat ulashib” loyihasi doirasida adabiy-ma’rifiy tadbirlar o‘tkazilyapti. Bundan ko‘zlangan maqsad talaba va o‘quvchilarni mutolaaga undash, badiiy didini oshirish, ularni vatanparvarlik va yurt kelajagiga daxldorlik ruhida tarbiyalash, darsdan bo‘sh vaqtini mazmunli tashkil etish, adiblarimizni ularga tanitishdan iborat.

O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasining 156 nafar taniqli a’zosi respublikamizdagi 202 ta oliy ta’lim muassasasi va 606 ta umumta’lim maktabiga biriktirilib, har ikki oyda bir marta uchrashuv va ma’rifiy tadbirlar o‘tkazish belgilandi. Tadbirlarga maktablar joylashgan mahalla fuqarolari ham jalb etiladi. Mazkur loyihaning ta’sirchanligi va natijadorligini ta’minlash maqsadida barcha tadbirlarga oldindan puxta tayyorgarlik ko‘rilyapti.

Ijodiy uchrashuvlar shu yilning aprel oyi ikkinchi yarmidan boshlangan bo‘lib, may oyining oxiriga qadar davom etadi. Xususan, loyiha doirasida kuni kecha taniqli ijodkorlar Abdunabi Boyqo‘ziyev va Zebo Mirzo bilan Chirchiq davlat pedagogika universitetida bo‘lib o‘tgan uchrashuvda qatnashdik. Shoirlar o‘z hayoti va ijod yo‘li haqida yoshlarga so‘zlab berdi. Ijodiy muhit, kitob mutolaasi, ustoz shoirlarning ibratli umri, bugunning adiblari haqida so‘z bordi. Uchrashuv mushoiraga aylanib ketdi. Adiblarga rassom talabalar tomonidan chizilgan o‘zlarining portretlari sovg‘a qilindi.

Bu kabi qizg‘in tadbirlar yurtimiz bo‘ylab yuksak saviyada o‘tkazilyapti. Adiblar bilan bo‘layotgan uchrashuvda ularning suratlari, tarjimai holi katta ekranlarda namoyish etilib, ular to‘g‘risida roliklar ta’lim muassasasining veb-sahifasi va ijtimoiy tarmoqlarida e’lon qilinyapti. Yozuvchi-shoirlarning asarlariga bag‘ishlangan onlayn viktorina, “Munozara” klubi, “Zakovat” intellektual o‘yini, spektakl, mushoira kechasi va chellenjlar uyushtirilyapti. “Yashil makon” loyihasi doirasida ko‘chatlar ekilyapti, gulxan atrofida suhbatlar bo‘lib o‘tyapti.

Bu loyihada qatnashayotgan shoir va adiblarni moddiy rag‘batlantirish ham ko‘zda tutilgan. Ularning ijodiy safari bilan bog‘liq barcha xarajatlar – borib-kelish yo‘l chiptalari, mehmonxona va ovqatlanishi taklif qiluvchi oliy ta’lim muassasasi tomonidan talabalarning bo‘sh vaqtini mazmunli tashkil etish uchun ajratilgan mablag‘lar hisobidan qoplab berilyapti.

2023–2024-o‘quv yilida adiblar bilan 808 ta uchrashuv o‘tkazish hamda ularga 326 ming nafar (50,6 foiz) talaba, 303 ming nafar o‘quvchini qamrab olish nazarda tutilgan. Talabalarga o‘zbek va jahon adabiyotining eng yaxshi 150 ta asari o‘qish uchun tavsiya qilinib, 49 ta film, 29 ta spektakl namoyish etish rejalashtirilgan. “Ma’rifat ulashib” loyihasi doirasidagi tadbirlar barcha turdagi ommaviy axborot vositalari orqali muntazam yoritib borilyapti.

Oliy o‘quv yurtlarining ma’naviy-ma’rifiy sohada amalga oshirayotgan ishlari doimiy monitoring qilinib, maxsus reyting tizimi orqali baholab boriladi. Bir kalendar yili davomida eng yuqori ball jamg‘argan 20 ta oliygohni moddiy va ma’naviy rag‘batlantirish, eng past ball to‘plagan 20 ta oliygoh rahbarlariga nisbatan iqtisodiy jazo qo‘llash nazarda tutilgan.

Tadbirlar davomida ijodkor talaba va o‘quvchilarning badiiy asarlari saralanib, Yozuvchilar uyushmasi tomonidan to‘plam shaklida nashr qilinadi.

O‘quvchilik kezlarim maktabimizga shoir Mengnor Ollomurod ijodiy uchrashuvga kelgandi. Shunda u bizga “Yuragimda yig‘lab turgan qiz” kitobini sovg‘a qilgan. O‘sha uchrashuv va adibning kitobi mening xotiramda bir umrga muhrlanib qoldi, shundan boshlab shoirlarning ijodi va hayotiga havasim uyg‘ondi. Yuksak tuyg‘ular murg‘ak yuraklarda olovlanadi, deb shunga aytishsalar kerak. Ijodkor bo‘lib yetishishimga o‘sha uchrashuv sabab bo‘lsa, ajab emas.

Bugun yurtimizdagi ta’lim maskanlarida uyg‘oq qalb va teran tafakkur sohiblari bo‘lmish adiblar bilan o‘tkazilayotgan “Ma’rifat ulashib” loyihasi doirasidagi ijodiy uchrashuvlar ham millionlab qalblarni uyg‘otishiga, ming-minglab talaba va o‘quvchilarda millatparvarlik, vatanparvarlik, insonparvarlik tuyg‘ularini alangalatishiga ishonaman.

Fozil FARHOD,
O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasi a’zosi

HAMKORLIK

TOSHKENTDA “FRANSUZ-O‘ZBEK TURIZM VA MADANIY MEROS KUNLARI”

Joriy yilning 16–18-aprel kunlari Toshkent shahrida Fransiyaning “Dualest” kompaniyasi tomonidan tashkil etilgan ikki mamlakatning turizm, madaniy meros, muzey va ijodiy soha vakillari o‘rtasida xalqaro hamkorlikni rivojlantirish va tijorat aloqalarini o‘rnatish bo‘yicha konferensiya va Fransiya-O‘zbekiston hukumatlararo hamkorlik tadbiri bo‘lib o‘tdi.

Unda urbanist, arxitektura muhandisligi agentligi, feyrverk va yoritish jihozlari ishlab chiqaruvchi korxonalar hamda fransuz tadbirkorlari muzeylarga sayyohlarni jalb qilishda immersiv loyihalar, bolalar va o‘smirlar uchun muzeylarda inklyuziv yechimlar kabi yirik loyihalar bilan ishtirok etishdi. Ushbu xorijiy kompaniyalar uzoq yillardan buyon faoliyat yuritib keladi. Jumladan, birgina yoritgich-chiroqlar ishlab chiqaruvchi zavod dunyoning gavjum ko‘chalari va hatto “Eyfel” minorasini yoritish ishlarini ham amalga oshirgan.



Shuningdek, tadbir doirasida Toshkent shahri va viloyatining mazkur sohadagi salohiyati ham taqdimot qilindi.

Toshkent viloyatining turizmga ixtisoslashgan hududlarida Fransiya arxitekturasi asosida energiyaga tejamkor mehmonxona va chang‘i kurorti qurish reja qilindi. Shu bilan birga, ekoqishloqlar dizaynini yaratish bo‘yicha ham Fransiyaning yirik kompaniyasi vakillari bilan muhokama yig‘ilishi o‘tkazildi. Unda qurilishi rejalashtirilayotgan mehmonxonalarda suv tejashni yo‘lga qo‘yish, tabiiy quvvat olish tizimini yaratish bo‘yicha loyihalar ko‘rib chiqildi. Toshkent viloyatining turizm sohasidagi tadbirkorlik subyektlari, jumladan, “Uzumfermer” vinochilik va “Moon Travel” turoperatorlik kompaniyalari kelgusida hamkorlikni kengaytirish yuzasidan bir qator kelishuvlarga erishdi.



“Fransuz-o‘zbek turizm va madaniy meros kunlari” doirasida o‘tkazilgan barcha tadbirlar ikki davlat o‘rtasidagi o‘zaro hamkorlikni yanada mustahkamlab, yurtimizda turizm salohiyatini oshirishga munosib hissa qo‘shadi deb ishonamiz.

Odinaxon G‘ULOMJONOVA,
Namangan viloyat tarixi va madaniyati davlat muzeyi katta ilmiy xodimi

HIKOYA

TO‘YDAN OLDIN



Sulton RAYEV,
Qirg‘iz xalq yozuvchisi

– Allo!..

– Allo. Kim bu?

– Kechirasiz... nol besh, yuz ellik uch, ellik sakkiz, yetmish oltimi?

– Ha, shunday.

– Oxirgi raqami o‘n uch.

– Ha, o‘n uch. Kechirasiz, men sizni tanimadim. Kimsiz, adashib tushmadingizmi?

– Men-ku adashganim yo‘q, bu – aniq, ammo sizga nima bo‘ldi? Biror joyga shoshib turibsizmi deyman, yo uyingizga o‘t tushdimi?

– Nima-nima? Tushunmadim. Kim o‘zi bu? Qanaqa o‘t? Adashdingiz...

– Yo‘q, meningcha, siz adashyapsiz. Telefoningizni to‘g‘ri terdimmi? Ismingiz nima?

– Ha, to‘g‘ri terdingiz.

– Demak, adashganim yo‘q. Men sizga qo‘ng‘iroq qilyapman.

– Bu bilan nima demoqchisiz? Men sizni tanimayman. Siz ham meni tanimaysiz. Nega endi eski tanishinizga qo‘ng‘iroq qilayotganday gapirasiz?

– Tanish bo‘lmasak, tanishamizda. Buning qiyin joyi yo‘q. Nima, xotiningiz yoningizda turibdimi? Ovozingiz qaltirab chiqayotibdi. Demak, xotinidan qo‘rqadigan erkaklardansiz...

– Bekorlarni aytibsiz. Xotinidan qo‘rqadigan erkak emasman. Siz o‘zi meni biror joyda ko‘rgansizmi, tanishganmizmi?

– Tanish bo‘lmasak, tanishamiz, deb aytdim-ku. Mening ismim Lira.

– Lira?

– Oldingizdan ilon chiqib qolganday qo‘rqib ketdingiz. Lira ismli tanish oyimingiz yo‘qmi?

– Yo‘q, bunaqa ismli ayolni tanish u yoqda tursin, tushimda ham ko‘rgan emasman.

– Sal oshirvordingiz, begim.

– Uff, bu tasqara kim bo‘ldi o‘zi? Hozir go‘shakni joyiga qo‘yaman.

– Hay-hay. Bunday qilmang. Yuragimni chiqaray dedingiz-ku. Raqamingizni bilaman, qayta-qayta telefon qilaveraman.

– Qanaqa xudo urgan odamsiz o‘zi?

– Nimaga jahl qilyapsiz? Ismimni eshitib, o‘zingizdan ketay deb qoldingiz. Haligacha ismingizni aytmadingiz. Bilsak bo‘ladimi?

– Ismim Samad. Shunaqa ismli tanishingiz bormi? Yo‘q!

– Yaxshi ism ekan. To‘g‘ri, Samad ismli tanishim yo‘q, ammo nega endi shunday kishi bilan tanishmasligim kerak?

– Ushlagan joyini uzadiganlardan ekansiz. Mayli, o‘zingiz haqingizda bir-ikki og‘iz gapirib bering.

– Qo‘rqyapsiz-a? Qo‘rqmang. Nyu-Yorkdagi baland imoratlarni qulatgan emasman, Kolizey fojiasida ham mening qo‘lim yo‘q.

– Gap deganni juda o‘rniga qo‘yar ekansiz.

– Ha, shunday. Hazil-huzul qilib gaplashishdan boshqa choram qolmadi.

– Tushunmadim. Unchalik emasdir-ov?

– Ertaga turmushga chiqyapman.

– Nima-nima? Turmushga chiqyapman?

– Voy, issiq sut og‘zingizni kuydirdimi, nega hayajonlanyapsiz?

– Mana endi hammasi aniq bo‘ldi – siz adashib, butunlay boshqa kishiga qo‘ng‘iroq qilyapsiz.

– Pardon. Ismingiz Samadmidi? Shu raqam siznikimi?

– Meniki bo‘lsa, nima qipti? Baribir, men sizni tanimayman.

– Bu muhim emas, balki... xushtorim bo‘lib qolarsiz?...

– Nima-nima?

– Nima-nima – eshitganingiz, suvga bo‘kkan taka!

– Yaxshi qiz, biror narsani tushunayotgan bo‘lsam, o‘lay agar. Boshim g‘ovlab ketdi. Siz bo‘lsa...

– Boshingiz joyida turibdi. Anqovlanmang. Yoshgina, endi-endi turmush qurmoqchi bo‘lib turgan bir hurliqo ko‘ngilxushi bo‘laman deb tursa, nega burningizni jiyirasiz? Tan oling – xohlaysiz-u, ammo qo‘rqasiz...

– Qo‘rq... qo‘rqayotganim yo‘q.

– Ovozingiz titrayotganidan bilinib turibdi-ku! Qo‘rqmang, bo‘lajak erimga bir oy avval o‘zimni topshirib bo‘lganman.

– Nima-nima? Axir ertaga to‘y-ku?

– Ana endi ochilyapsiz. Men ham ochilay – vannada qip-yalang‘och cho‘milyapman. Eshityapsizmi?

– Xudo urib qo‘yibdi sizni...

– Gapni boshqa yoqqa burmang. Siz, erkaklar, bilasizmi, kimsizlar o‘zi?

– Hmm. Kimmiz?

– Uchiga chiqqan qasamxo‘rsizlar! Qo‘yib bersa, ilonning yog‘ini yalashdan toymaysizlar. Keling, ochiqchasiga gaplashaylik. Bunaqa tomoshaning kimga keragi bor? Yuzingizdagi niqobni yechib oting. Qani, ayting-chi, “Yo hayot, yo mamot”, degan so‘zning muallifi kim?

– Hamlet.

– Ana, intellektual darajangiz ancha balandga o‘xshaydi. Shekspirni o‘qigan ekansiz-da.

– Bil... bilaman. Axir, men... faylasufman, Fanlar akademiyasida kichik ilmiy xodimman...



– Mana. O‘zim ham shunday bo‘lsa kerak deb o‘ylagandim. Platon, Diogen, Monteskyo, Konfutsiy, Nitshe deng? Tentaklar to‘dasi. Miyasi tamom aynib bo‘lgan kishi ekansiz-ku. Miyasi aynimagan odam filosofiyaga yaqinlashmaydi.

– Kechirasiz, indamasam, siz... juda...

– Nima, faylasuflarning ustidan kulsam kulibman-da. Mayli, ularni qo‘ya turaylik, ammo ikkovimiz eski tanishlarday bo‘lib qoldik. Hali ko‘rmasam-da, sizni o‘zimga o‘ynash qilib olishga urinib yotibman. Bilib qo‘ying, men duch kelgan erkakka bunday imkoniyat bermayman.

– Martabangiz ancha baland ekan. Shunisiga ham rahmat.

– Nega endi shivirlab gapiryapsiz? Nima, xotiningiz eshik oldiga kelib, so‘zlaringizni tinglab turibdimi? “Hoy xotin, xarxasha qilma, men jonimdan ortiq sevgan xushtorim Lira bilan gaplashyapman”, desangiz bo‘lmaydimi? Eh, bechora erkaklar, xotinlari oldida shunaqa titrashadiki... Sizdan bir narsani so‘ramoqchiman, hurmatli faylasuf. Diogen nima sababdan bir umr bo‘chkaning ichida yashagan?

– Buni bilmayman, eshitmagan ekanman.

– Bilmagan bo‘lsangiz – bilib qo‘ying: xotini uyidan quvib solgan.

– Nahotki?

– Xuddi shunday. Xotinidan qo‘rqqan erkakda “qo‘shimcha” maydon bo‘lmaydi. Ko‘ngilxushi tutish oson emas, bunga ham yurak kerak. Menga o‘xshagan yosh qizchaga ilashish uchun erkakboy akam boshini kundaga qo‘yishiga to‘g‘ri keladi. Sizda bunday “rohat-farog‘at” bormi o‘zi? Faylasuflarning sochi tovuq oldin yaralganmi yo tuxummi, degan savolga javob topa olmay oqaradi. Dadamning faylasuf bir do‘sti bor, gaplashsangiz, og‘zidan allambalo atamalar tushmaydi: apofansis, kreatsianizm, logosentrizm, refleksiya, so‘fizm, gnozis, noezis...

– Bularning hammasi ilmda bor gaplar. Menga qarang, siz mening yoshim nechadaligini bilasizmi o‘zi? Bilmasdan o‘zingizcha...

– Yoshning nima ahamiyati bor?

– Aytdim-qo‘ydim-da.

– Shunchaki aytgan bo‘lsangiz, eshiting. Yoshingiz ellikda. Ikki qiz, bir o‘g‘lingiz bor. Titrab, birov eshitib qolmasin, deb shivirlashingizdan ko‘rinadiki, xotiningiz erkak zotining jonini sug‘urib oladiganlardan. Ellikka yaqinlashib qolgan. To‘g‘rimi?

– Siz... nima desam ekan, ko‘p narsa biladiganga o‘xshaysiz. Ha, yoshim ellikda, xotinimning yoshi ham shunga yaqin. Universitetda birga o‘qiganmiz...

– Yaxshi, birinchi muhabbatning ko‘zi ko‘r bo‘ladi deyishadi. Xo‘p, davom eting.

– Uch farzandimiz bor, uchovi ham qiz...

– E, zargar bo‘lib keting-e. Demak, ma’shuqali bo‘lishga haqingiz bor...

– Gapni chuvalashtirmang.

– Chuvalashtirayotganim yo‘q. Juda terisi yupqa odam ekansiz-ku. Bir gap aytsam, burgaday sakraysiz-a. Ayol kishini puldan qismasangiz bo‘ldi – ko‘p narsaga ko‘z yumadi.

– Men sizdan ancha kattaman.

– Darvoqe, yosh haqida. “Muhabbat yosh tanlamaydi” degan gapni kim aytgan?

– Yodimda yo‘q.

– Pushkin aytgan.

– Pushkin shunday degan bo‘lsa, to‘g‘ri aytgan bo‘lishi mumkin.

– Daholar xato qilishmaydi. Men sizdan yana bir narsani so‘ramoqchi edim.

– So‘rang, ammo jo‘mragingiz ochiq qolganmi, suvning shildirashi eshitilyapti...

– Men sizga aytdim-ku, vannada cho‘milyapman, deb. Onadan qanday tug‘ilgan bo‘lsam, shu kiyimdaman. Siz bo‘lsangiz, erkak sifatida bunga e’tibor ham qilayotganingiz yo‘q. Yana bu kishini ma’shuqlikka chaqirib yotibman-a.

– Kechirasiz, men... haligi... siz o‘ylayotgan narsa haqida bir nima deganim yo‘q.

– Mayli, o‘zingizni oqlamang. Ko‘nglim uchun bir og‘iz “Mayli, men roziman” deb qo‘yish qiyinmi? Shuni aytishga ham qo‘rqasizmi? Mendan aslo cho‘chimang. Aqli-hushi joyida qizman. Ko‘rinishim binoyidek. Qunduz qo‘shiqchi kuylaganidek, “qomatim 90x60x90”. O‘ttiz ikki tishim butun. Yaxshisi, yana bitta narsani so‘ray.

– So‘rang, javob berishga harakat qilaman.

– “Harakat qilaman” deganingiz nimasi. Lanj odamni yoqtirmayman. To‘g‘risini ayting – menga jazman bo‘lasizmi, yo‘qmi?

– To‘yim bo‘ladi, erim bor, dedingiz-ku?

– Bor desa ham bo‘ladi, yo‘q desa ham. Nikohdan o‘tganimiz yo‘q.

– Esingizni yig‘ing. Ertaga to‘yingiz. Men sizlarga baxt, uzoq umr...

– E, to‘xtating bunaqa havoyi gaplarni. Jonimga tegib ketgan. Menga aql o‘rgatmang.

– Eshitsangiz fikrimni aytay.

– Nima fikr aytishingizni bilib turibman. Ayting.

– Kimgadir ma’shuqa bo‘lsangiz, eringizning ko‘ziga qanday qaraysiz? Fikrimni ochiq aytayinmi?

– “Kechirasiz”, “Ochiq aytay” degan so‘zlardan boshqasini ham bilasizmi? Erkakka o‘xshab, shartta-shartta bo‘ladigan gapni ayting-qo‘ying-da.

– Bo‘lajak eringizni yaxshi ko‘rasizmi?

– Hmm...

– Nega ovozingiz chiqmay qoldi?

– Hozir, vannadan chiqib olay.

– Allo?

– Ha, gapiravering.

– Bo‘lajak eringizni sevasizmi, deb so‘rayapman.

– Sizningcha, faqat sevadiganlargina turmush qurishadimi?

– Fikrimcha, shunday.

– Xo‘-o‘sh, hurmatli faylasuf bobo, siz hozir eshik tirqishidan qarab, so‘zingizni eshitib turgan xotiningizni sevib olganmisiz?

– Mening xotinimni aralashtirmang.

– Nega aralashtirmas ekanman. Uch qizingiz sizlarning favqulodda kuchli muhabbatingizdan dunyoga kelganmi? Iste’dodlari qanday? O‘rtacha darajadagi bolalarni ko‘paytiravermay, yulduzlarga qarab, aql bilan ish qilish kerak, hurmatli faylasuf og‘ay. Sizlar sevgi u yoqda tursin, kundalik turmushning oddiy ikir-chikirlarini ham bilmaysizlar. Sevgini tinch qo‘yinglar. Bu tuyg‘uni his etish qo‘lingizdan kelmaydi. Ishq bog‘idan juda uzoqdasiz. Juda uzoqda! “Yo‘q, unday emas, sevgini bilamiz, qadriga yetamiz”, deb aytishingiz mumkin. Xo‘p, shunday ham deylik. Unda, eshikdan mo‘ralab turgan xotiningizga qarab, eshittirib, bor ovoz bilan: “Jonim, hayotim, men senga ishqingda devona bo‘lib uylanganman”, deng-chi? Qani, marhamat? Iye, nega ovozingiz chiqmay qoldi? Hoy, faylasuf tog‘a, Akademiyaning kichik ilmiy xodimi, muhtaram mirza janobi oliylari, qaydasiz, ku-ku, ovoz bering.

– Haddingizdan oshib ketyapsiz, indamasam meni...

– Sal gapgayoq jahlingiz chiqmasin-da. Qon bosimingiz ko‘tarilib ketsa, yurakka kuch keladi. Yurak bezovta bo‘ldimi, sevgi ham lat yeydi. Sevgi lat yesa, xotiningizga qiyin bo‘ladi.

– Hoy, nega xotinimni ko‘rmay turib, uni yomonlayapsiz?

– Xotiningizning yonini olyapsizmi, nima, u hali ham joningizga tegmadimi? Shundoq yuziga qarab, “Xotinjon, sendek ayol mendek noshud kichik ilmiy xodimga uvol”, deya olasizmi? Deyolmasangiz go‘shakni qo‘liga tutqazing-chi? Qani, bering unga.

– Xotinim uxlab yotibdi...

– Siz uni himoya qilayotganingizdan sizlar sevib-sevilib turmush qurgan bo‘lsangiz kerak, degan fikr keladi. O‘zingiz faqat sevishganlar turmush qurishi kerak, dedingiz-ku?

– Prinsip jihatidan qaraganda, shunday bo‘lishi kerak.

– Bravo! Bis! Bellissimo, muhtaram faylasuf! Sizlarni aql odamlari deb bekorga aytishmagan.

– Falsafa so‘zi bizning tilimizda “aql muhabbati” bo‘ladi.

– Aql muhabbati? Juda g‘aroyib-ku! G‘aroyib fikr. Faylasuf. G‘aroyib kasb. Sizlar aqlni emas, oddiy bir ayolni sevib ko‘ringlar-chi. Sevgi-muhabbat haqida og‘iz to‘ldirib gapirasizlar, ammo uydagi sadoqatli xotiningizga “Men seni sevaman, jonimdan ortiq ko‘raman, sen yagonamsan”, deya olmaysiz. Sizning faylasufona fikringizga ko‘ra, agar hamma bir-birini sevib turmush qurishlari shart bo‘lsa, sevishmaganlar qayerga boradi? Bilib qo‘ying: turmush qurayotgan har o‘nta yoshdan yettitasi, agar u Xudodan qo‘rqsa, yolg‘on so‘zlamay, “Men sevmay turmushga chiqmoqdaman”, deb bemalol ayta oladi. O‘sha yettitaning bittasi – menman. Sizga, sizga o‘xshagan “aqlli”larga qolsa, sevgi ostonasiga yetolmagan, ishq bog‘iga qadam bosish nasib etmagan million-million yoshlar bu dunyoda armon bilan yashab, armon bilan o‘tib ketishlari kerak ekan-da, janob faylasuf? “Ulug‘ kitob”dagi: “Xudo sevgi emas, sevgi – Xudoning inson qalbida zohir bo‘lishi”, degan so‘zlarni bilsangiz kerak? Biz bu ulug‘ hikmatni unutib qo‘ymadikmi? Qalbimizdagi Xudoni unutmadikmi? Xudo biz uchun ato etgan buyuk muhabbatdan uzoqlashib ketmadikmi? Unutdik, uzoqlashib ketdik. Mana endi sevgi-muhabbat haqida quruq, hech kimga keragi yo‘q safsata gaplarni tinmay chaynab yotibmiz.

– Hmm... Allo, yig‘layapsizmi?

– Kechirasiz... Ichim to‘lib ketdi. Ertaga to‘yimiz bo‘ladi. Turmushga chiqyapman...

– Kechirasiz, hozir uyda bir o‘zingizmisiz?

– Ha, bir o‘zimman. Yolg‘izman. Hamma qudalarnikiga ketdi. Bundan keyin ham yolg‘iz bo‘lsam kerak. Yuragida sevgi bo‘lmagan odam yolg‘iz yashaydi. Ilojsizman, ilojsiz, chorasiz qolayotgan million-million yoshlarning biriman.

– Ha, aytgancha, siz mendan bir nimani so‘ramoqchi edingizmi?

– Meni yengiltak ekan deb o‘ylamang.

– Yo‘q-yo‘q, mutlaqo.

– Sizga nima sababdan qo‘ng‘iroq qilganimni bilasizmi? Telefon raqamingiz: besh yuz ellik uch, ellik sakkiz, yetmish olti, o‘n uch. Shundaymi?

– Ha, shunday.

– Besh, besh, uch – bu raqamlarni bir-biriga qo‘shsak – o‘n uch, ellik sakkiz – o‘n uch, yetmish olti – o‘n uch, oxirgi ikki raqam ham o‘n uch. O‘n uch – mening taqdirim. Siz numerologiya degan fanni bilasiz. Raqamlar shunchaki hisob-kitob emas, ularda inson taqdirining ham hisoboti bor. Men sizga taqdirim raqamidan kelib chiqib qo‘ng‘iroq qildim. Ichimdagi bor gapni shu raqam egasiga aytib, yuragimni bo‘shatib olmoqchi bo‘ldim. Qarangki, sizga tushibman.

– Ko‘plar o‘n uch raqamini xosiyatsiz deb bilishadi. Ammo bizda bunday emas, boshqalarda shunaqa. Baxt raqamga bog‘liq emas. Ishonasizmi, men har xil bashoratchilarga, astrologlarga, Vanga, Nostradamusga mutlaqo ishonmayman.

– Kimga ishonasiz?

– Xudoga ishonaman.

– Keyin-chi?

– Keyin... Nima desam ekan...

– Ayolingizga ishonasiz. Ammo... ishonsangiz ham, ishonmasangiz ham, buni ochiq ayta olmaysiz. To‘g‘rimi? Hayot o‘zi shunaqa – aytmoqchi bo‘lasan, lekin aytolmaysan. Mening sizdan farqim – yuragimda nima bo‘lsa, ochiq aytaman, yashirmayman. Men juda kuchliman. Zarur bo‘lganda nochor odamga yordam bera olaman, yonida tirgak bo‘lib turishim mumkin, menga dushmanlik qilganni esa ezib tashlayman. Menga o‘xshagan ayollarning baxtsizligi – mana shu ochiqligimizda! Bizdaqalarni hamma ham yoqtiravermaydi. Ichimiz to‘lib-toshib, shu ahvolga tushdik.

– Tun yarimlab qoldi. Ertaga to‘yingiz. Vaqtingizni olayotganim yo‘qmi? Ay, hozir, hozir...

– Go‘shakni qo‘lingiz bilan yopsangiz ham “Hozir, hozir” deganingizni eshitib turibman. Taqdirim to‘g‘risida sizga beradigan savollarim ko‘p edi. Siz bo‘lsangiz, xotiningizning vajohatidan qo‘rqib, go‘shakni joyiga ilmoqchi bo‘lib turibsiz. Iltimos, bunday qilmang.

– Hozir, hozir. Gapiravering, eshityapman.

– Shivirlamay gapiring, shivirlayversangiz, umringiz o‘tib ketganini bilmay qolasiz...

– To‘g‘ri, to‘g‘ri, gapiravering, ertaga to‘yingiz...

– To‘yim bo‘lsa nima?

– Erta turishingiz kerak-ku, shunga... ertaroq yotganingiz ma’qulmi deyman-da...

– Ha, ertaga to‘yim, turmushga chiqyapman. Kelin keladi deb zamonaviy qaynotam, deyarli shunday qaynonam, “Leksus” mashina, hashamatli xonsaroy, nimjon va noshud turmush o‘rtog‘im kutib turibdi. Baxtdan boshqa hamma kutmoqda...

– Hozir, hozir...

– Shoshilyapsiz. Turmushga siz emas, men chiqyapman-ku, nega shoshasiz? Yuragimda yana nimalar borligiga qiziqmaysizmi? Siz bilan yana so‘zlashgim, ichimlik ichib biroz sarxush bo‘lgim kelyapti...

– Hozir, hozir...

– Sizga qanaqa ichimlik yoqadi?

– Moldovanlarning qizil vinosi.

– Byudjet tashkilotlarida ichiladigan vinomi?

– Uning shunaqa nomi ham bor deng?

– Arzonligi uchun shunday deyishadi. Men fransuzlarning qizil vinosini xush ko‘raman. Hozir oldimda sizga ma’qul keladigan xilma-xil vino turibdi: “Bordo”, “Burgund vinosi”, “Korbyer”, “Bandol”, “Bellet”, “Kassis”...

– Hozir, hozir...

– E, qanaqa odamsiz o‘zi? Oldingizga Azroil kelsa ham, “hozir, hozir”, deb gapni olib qochar ekansiz. Sizga ko‘nglini ochayotgan, dardini to‘kib solayotgan bir bechoraga ozroq vaqt ajratolmaysizmi? Siz bilan taqdiridan zerikkan bir kimsa gaplashayotgani yo‘q! Ha, mening taqdirim boshqacha bo‘lyapti – raqamlari qo‘shilsa hech qanday hisob, ma’no chiqmaydi. Men sizdan ayollik savollarimga javob kutdim. Bu dunyoni maraz dunyo deymiz, uni shu ahvolga tushirgan kim – o‘zimiz emasmi? Ha, o‘zimiz. Boshqa hech kim, hech narsa emas! Chunki biz ong-sezimimizni, insoniy tuyg‘ularimizni marazlashtirdik. Bu yorug‘ olamda endi kim baxtli? Bo‘yga yetgan qizini yog‘iroq joyga uzatsam deb yurgan onami? Borgan joyida tosh qotsin deya niyat qilayotgan otami? Kelinning ko‘ngli, orzu-havasi, nozik fe’l-atvorini lolaqizg‘aldoqning bargichalik ham ko‘rmaydigan qaynotami? Undan qolishmaydigan qaynonami? Yo “Xotinim – mening mulkim”, deyishdan nariga o‘tmaydigan xomkalla kuyovmi? Kim? Hech kim!

– Hayot hamisha shunday bo‘lgan.

– Yo‘q, hayot bunday bo‘lmagan, uni o‘zimiz buzdik. O‘sha buzg‘unchilarning ichida siz ham borsiz. Hurmatli faylasuf, siz ko‘proq aqlga e’tibor berdingiz, hayot esa e’tiborsiz qoldi, uni sevish kerak edi. Hayotni sevganingizda, aqlingiz yanada to‘lishar edi. To‘g‘risini aytsam, siz hech kimni yurakdan sevmagan, hech narsaga mehr qo‘ymagan, hatto ayolining hurmatini ham joyiga qo‘ya olmagan nochor bir bandasiz. Siz kabi odamlar bilan gaplashib, vaqtimni bekor o‘tkazganimga, sizlardan maslahat so‘raganimga, o‘zaro dillashib, yolg‘izligimni bir muddat bo‘lsa-da, unutmoqchi bo‘lganimga afsuslanaman, o‘zimni o‘zim kechirmayman, o‘zimdan jirkanaman. Siz suhbatdosh bo‘lishga ham arzimaysiz, yuragingiz sovuq, tosh. Sizga o‘xshagan odamlar hayotning rasvosini chiqardi. Dunyoni sizlarga o‘xshagan hissiz, tuyg‘usiz odamlar bosib ketdi. Muhabbat inson maqomida yashamoqlikning sharti ekanligini bilmaysizlar. Go‘shakni joyiga qo‘ying. Qo‘ying deyapman. Qancha tez qo‘ysangiz, shuncha yaxshi. Qo‘ying!..

– Allo! Allo! Alo-oo...

Qirg‘iz tilidan
Ahmadjon MELIBOYEV
tarjimasi.

Muallif haqida: *TURKSOY xalqaro turkiy madaniyat tashkiloti kotibi, Qirg‘iz xalq yozuvchisi Sulton Rayevning nomi o‘zbek kitobxonlariga yaxshi tanish. Uning “Chang ko‘cha”, “Toj” singari ko‘plab asarlari qirg‘iz, xitoy, rus, ukrain va boshqa tillarda chop etilgan.*

Iste’dodli dramaturg va rejissyor sifatida ham nom qozongan adibning “Ayol”, “Malikaning faryodi”, “Devor”, “Qizlarjon, qizlar” dramalari ko‘plab mamlakatlarning sahnalarida xalqaro festivallarning sovrinlariga sazovor bo‘lgan.

FUZULIY – 530 YOSHDA

UCH BUYUK TIL YUZLASHGAN MAYDON



O‘zbek jadid adiblarining Fuzuliyga munosabati xususida

-1-

O‘zbek xalqi ma’naviyati tarixidagi eng muhim va dovruqli adabiy hodisalardan biri jamoaviy bo‘lib kitob o‘qish, o‘qilganlarini sharhlab, muhokama qilish bo‘lsa kerak. Zero, bunday mutolaalar sharofati bilan navoiyxonlik, bedilxonlik, fuzuliyxonlik, rumiyxonlik keng ommalashdi. Jadid ziyolilari davriga kelib, bu hodisa yozma shaklga kira boshladi. Ya’ni tarixda o‘tgan allomalarning asarlarini vaqtli matbuot orqali targ‘ib qilish va talqin etish jarayonlari boshlandi. Xususan, jadidlar Alisher Navoiy, Imom G‘azzoliy, Abu Nasr Forobiy kabi allomalar qatorida Fuzuliyga ham diqqat qaratishdi.

O‘z asarlari tarkibidagi obrazlar – qahramonlarni Fuzuliy kitoblariga oshno tutintirishdi. Bu jihatdan Abdulla Qodiriy romanlari muhim ahamiyatga ega. Mahzun bir epizodda Otabek Fuzuliy devonini o‘qib o‘tirganida kirib kelgan Kumushning “Fuzuliy yaxshi kitob, men ham yolg‘iz qolg‘an kezlarimda bu kitobdan boshimni ololmas edim, siz hammi?” degan savolli gapini zukko o‘quvchi eslab qoladi, albatta. Bundan tashqari, Abdulla Qodiriy “Mehrobdan chayon” romanidagi Ra’noga ham “Devoni Fuzuliy ma’a Layli Majnun”ini o‘qiganlar qatoridan joy beradi. Ayni romanning boshqa bir sahifasida Fuzuliyning “Dahr bir bozordir, har kim mato’in arz edar” misrasi keladi.

Aslida, Abdulla Qodiriyning o‘zi Fuzuliy ijodini sevib o‘qigani ayni haqiqatdir. Zamondoshlarining xotirlashlariga ko‘ra, dastlab, Abdulla Qodiriy Kumush qabriga Fuzuliyning “Hamrohim eding bu yo‘lda, ey moh, Hamrohni tashlab ketarmi hamroh...” misralarini bitmoqchi bo‘ladi. Keyin fikri o‘zgaradi va adib:

“Ayo charx, etding ortuq jabr bunyod,
Ko‘zim yoshlig‘, tilimda qoldi faryod.
Hayotim lolazoridin ayurding,
Yoqib jonim, kulim ko‘kka sovurding”, –

degan yuraklarni iztirobga solguvchi she’rini yozib qo‘yadi.

Yunus Maqsudiy “Ulug‘lar davrasida” nomli xotira kitobida Cho‘lponning: “Menimcha, Fuzuliyga “Layli va Majnun”ni yozish juda og‘ir, ayni zamonda juda zavqli ham bo‘lgan. Chunki Fuzuliy Majnun qiyofasiga kirmay, ishq yo‘lida u chekkan azob-uqubatlarni o‘z boshidan kechirmay turib, bunday shoh asarni yoza olmas edi. Zotan, Qodiriy ham Otabek bilan maslakdosh, hamfikr bo‘lmaganida “O‘tkan kunlar” bunchalik shuhrat qozonmas edi”, degan fikrini keltiradi.

Darhaqiqat, 20-yillar adabiy muhitida jadid ziyolilari Fuzuliyni zavq-shavq bilan mutolaa qilishgan. Ayni chog‘da, uning ijodiga adabiy-nazariy tomondan baho berish jarayonlari ham ularning zimmasiga tushdi. Bu o‘rinda jadid munaqqidi Vadud Mahmudning “Fuzuliy Bag‘dodiy” maqolasi muhim qiymat kasb etadi.

-2-

Vadud Mahmudning ushbu maqolasi 1925-yili “Maorif va o‘qituvchi” jurnalida nashr etiladi. Unda shoir shaxsiyati va dunyoqarashi, asarlari, ularning qaysi tilda bitilgani hamda Fuzuliyning Turkiston shoirlariga ta’siri kabi masalalar yoritilgan. Muallif shoirning Bag‘dod shahri atrofida tug‘ilgani, ismi Muhammad, otasining ismi Sulaymon bo‘lib, olim kishi bo‘lganidan, Bag‘dod “uch buyuk – arab, fors va turk til va adabiyotining uchrashg‘on maydoni” ekanidan xabar beradi. Shoir islom madaniyatidan bahramand bo‘lgani aniqdir. Xo‘sh, shunday bir sharoitda tarbiya topgan shoirning tafakkur tarzi, tili qanday bo‘lishi mumkin? Fuzuliyning o‘z iqroricha, unga arab tilida she’r aytish unchalik mushkul emas, negaki o‘sha davrning ilmiy-adabiy tili arabcha edi. Ba’zan u “forsiy iboralar ipiga durru marjon taqib, o‘sha mevali daraxtning shoxidagi gullarni” teradi. Ammo uning zuvalasi turkiyda pishgan, shu bois bu tilda she’rlar yozish shoir uchun mutlaqo muammo emas. Turkiycha Fuzuliyning asl tabiatiga mos, ona tili ham o‘shadir.

Vadud Mahmud shoirning turkiy ekanini o‘z maqolasida takror va takror uqtiradi. Buning sababi bor. Ayrim faktlar 20-yillarda mashhur shaxslarning millati yuzasidan bahs-munozaralar bo‘lib o‘tganini ko‘rsatadi. Alisher Navoiyni “urug‘i-nasli ham, tili ham o‘zbekcha bo‘lmag‘on, balki chig‘atoy yoki uyg‘ur shoiri”, “fors shoiri” deb da’vo qiluvchilar bo‘lganidek, Fuzuliyning ham turkiy ekaniga shubha bilan qarovchilar bor edi. Masalan, Cho‘lponning “Rizo Tavfiqbek” maqolasida shunday jumlalarni o‘qiymiz: “Turkiyaning yangi shoirlaridan eng kuchlisi bo‘lg‘on Yahyo Kamolbek bilan Istanbul dorilfununining fors (eron) adabiyoti mudarrisi Husayn Donishbek orasida milliyat janjali boshlanib ketgandan so‘ng, Eron millatchilari bo‘lgan Husayn Donish tarafidan Rizo Tavfiq ham turk millatchilari bo‘lgan Yahyo Kamolga qarshi chiqdi. Da’vosini isbot qilish uchun, bu muqtadir faylasuf mashhur Fuzuliyni turk emas, eronli (fors) qilib chiqdi.

Fuzuliyning asarlarini Eronning mashhur bir shoiridan olg‘onligini da’vo qildi. Mana shu kundan boshlab Rizo Tavfiqning shuhratda, hurmatda pastlashishi boshlandi”.

Ko‘chirmadagi mavzuga tegishli gap aniq. Taxminimizcha, Vadud Mahmud maqolasida shoirning millati turkiyligiga qayta-qayta urg‘u berishidan, turli hujjatlar keltirishidan maqsad – avvalo, ilmiy-adabiy jamoatchilikdagi ana shunga o‘xshash bahs va chalkashliklarga barham berish ham edi...

“Maorif va o‘qituvchi” jurnaliga qiyosan ozarbayjon tilida chiqadigan “Maorif va madaniyat” jurnalini varaqlagan kishi ularning mundarijasi, o‘sha davrda yoritilgan ijtimoiy, madaniy, maorif va teatr, tarix va adabiyot mavzularida yaqinlik borligini bilib oladi. “Maorif va madaniyat” majallasining 1926-yil birinchi sonida “Fuzuliy va tasavvuf” sarlavhali maqola bor. Muallifi – Ali Husaynzoda.

Yuqorida eslatilganidek, u shunday satrlarni yozadi: “Fuzuliyning mutasavvufona bir ruha molik o‘ldig‘ini kimsalar rad edyurlarsa-da, bizcha, bu dugri dagil (emas – B.K)dir. Uning bahs etdigi “sharob”ing oddiy sharob o‘lmasini-da iddao edanlar vordir.

Pak muhtaram sevgili professor Bakir Chubanzoda Fuzuliydan bahs edar ekan: “Fuzuliy so‘fiy, mistik dagildir, faqat so‘fiylar kibi u-da “sharob”dan, “ishq”dan bahs edar. Lokin uning bahs etdigi sharob uzumdan yopilmish qirmizi sharob “mayi la’l”dir”, deya Fuzuliydaki tasavvufiy ruhing hokimiyatini rad edyur. Va so‘zini quvvatlandirmak uchun “Bang va Boda”dan:

“Tarafa” odi zamona mashhur,
Laqabi “boda” asli angur,

va bir-da “Bang va Boda”ning so‘nggi:

“Chun Fuzuliy banim laqabim
Ajab ermas gar o‘lmasa adabim” –

bandina ishora edarak “Kandisining bahsi harom, shar’i va shariat odobina zid, muxolif shay’laridan bahs edigini tasdiqida bo‘lunur” jumlasini ilova edyur.

Bizcha, bu bayt-la, yalg‘iz bu fakt ila hech bir zamon yuqoridaki fikrlar isbot o‘linmamish o‘lur”.

“Bang va Boda” asarining tasavvufona ruhi ustida bahs ochgan Ali Husaynzoda Bakir Chubanzodaning asarni ramziy istilohlardan uzib, dunyoviy tahlil etishini singdira olmaydi, “pak muhtaram sevgili” professorning qarashlarini inkor etishga urinadi. Shoirni shakllantirgan ijtimoiy muhit hamda asarlaridan olingan jiddiy faktlarni keltiradi. “Fuzuliyning yashadigi muhiti tasavvufing yoyilmasina va bo‘yamasina sabab o‘lan muhit dagil-da nadir?” Xullas, Fuzuliy asarlarining falsafiy asosida ma’lum darajada tasavvuf ta’limoti yotishi aniq. Hatto, nafaqat “Bang va Boda”, balki bahslashuvchining fikricha, fors tilida yozilgan “Haft jom” asari ham Fuzuliyning “daho oydin va qutli tasavvufiy ruha molik o‘lan” asarlari sirasiga kiradi.

Ali Husaynzodadan sal ilgari Vadud Mahmud Fuzuliy ijodidagi so‘fiyona ruhni “islomiy tasavvuf” sifatida izohladi. Islomiy tasavvuf – bu Alloh hukmlari va Payg‘ambarimiz (s.a.v.) hadislariga muvofiq hayot tarzi demakdir. Shunga ko‘ra ayni tushuncha shariatga to‘la mos keladi; bu yo‘ldagi inson islom dini hukmlarini ixlos bilan samimiy bajaradi...

Bu ulug‘ shoir din va tasavvufdan boshqa hikmat va tib singari ilmlardan ham voqif bo‘lgan. Ayrim asarlarini shu yo‘sinda yozgan, “Forsiyda ham bir devon, bir necha qasida va masnaviyati bordir. Faqat bular turkchasi qadar samimiy, san’atkorona va go‘zal emasdir...

Fuzuliy turk she’rida forsiydagi Hofiz qadar (lirik) rubobiydir. Turkda Fuzuliy kabi dardli va o‘tli bir shoir yo‘qdir”.

Nazmiy tafakkurning so‘lim gulshanidan taralgan misralarning musiqiy ohangi nozikta’b insonni o‘ziga maftun etadi. Muhammad Fuzuliy o‘zidan oldingi so‘z gavhari zargarlarining san’atiga havas qildi, dilgir bo‘ldi. Ayniqsa, Vadud Mahmud ta’kidlaganidek, Alisher Navoiy asrida Sharq turkchasidan-chig‘atoychadan G‘arb turklari qattiq ta’sirlandi.

Kuzatishimizcha, Vadud Mahmud adabiy merosga daxldor maqolalarida “o‘zbekcha”, “turkcha”, “ozarbayjoncha” til va adabiyot istilohlarini qo‘llamaydi. Avlod-ajdodlari bir, o‘tmishi bir-biri bilan bog‘lanib-chatishib ketgan xalqning ikki xil shevasini ikki xil atama – “G‘arb turkchasi” va “Sharq turkchasi” deb nomlaydi. “Hozirda joriy atamalar ommaga ancha singib ketgan bo‘lsa-da, o‘sha 20-yillarda iste’molda bo‘lgan ilmiy atamalarni muomalaga olib kirmasdan turib, turkiy tillar tarixini, turkiylarning madaniy va fikriy tadrijini batafsil yoritish mumkin emas” (Ertug‘rul Yamon fikri).

Ha, badiiy asarlarning uslubi, tili, ohangi masalasida ham ahvol shunday. Bir chinorning ikki katta shoxlari har vaqt ta’sir va aks ta’sir doirasida bo‘ldi. Aytib o‘tganimizdek, Alisher Navoiy zamonasida Sharq turkchasi G‘arb turkchasiga sezilarli ta’sir qildi. “Faqat Fuzuliydan so‘ng, – deb yozadi Vadud Mahmud “Fuzuliy Bag‘dodiy” maqolasida, – G‘arb turkchasi Sharq turkchasiga ta’sirini kuchaytirdi va bu kun usmonli lahjasining takomili bilan ta’sir yana kuchaydi”.

Vadud Mahmud maqolasining “Fuzuliyning Turkistonga ta’siri” bo‘limida ozarbayjon shoirining go‘zal she’rlaridan bahramand bo‘lgan turkistonlik ijod ahlining nomlarini sanaydi, ularning she’rlaridan misollar keltiradi. Fuzuliyning chig‘atoychilar orasida tarqalishi bilan uning lahjasida she’r aytuvchilar maydonga chiqqani aniq, ulardan ba’zilari maxsus devonlar tuzishgan, Umarxon, Xotif singari shoirlar Fuzuliy g‘azallariga muxammaslar bog‘ladi.

-3-

Vadud Mahmud o‘ziga zamondosh bo‘lgan Ajziyning fuzuliyxonligi haqida “Turk shoiri Ajziy” maqolasida: “Ajziy shevada Fuzuliy yo‘lini tutgan shoirlardandur. Bu shoirimiz ham oshiqdur, ma’shuqasi xalqdur, millatdur. Millat va xalqiga muhabbati uning ishqidur”, deb qayd qiladi.

Munaqqidning “Fuzuliy tilining bu kungisi, ya’ni usmonlicha ila shoirimiz Cho‘lpon ham ba’zi chiroylik parchalar yozadir”, degan fikri ham o‘z asosiga ega.

“Ilk avval go‘zimi ishq ila ochdim,
Ishqing maydonina
qonimi sochdim.
Ishqsiz o‘lkalardan u
onda qochdim,
Na zamon bog‘ladim
zunnori ishq...”

Munaqqid Cho‘lponning shunday boshlangan she’rini misol qilib keltiradi.

Ma’rifat ahli, she’riyat shaydolari Cho‘lpon ijodida bunday onda-sonda uchraydigan G‘arb turkchasi ta’sirida bitilgan ayrim jo‘shqin misralarni zukkolik bilan ilg‘ab oladi, albatta.

Olovning issiq tafti sovuq kunda, oyning yorug‘ nuri qorong‘i tunda bilinadi. Shunga muvofiq har bir voqea-hodisa muayyan tarixiy sharoit bilan izohlanishi e’tiborga olinsa, Vadud Mahmudning qardosh xalqlar adabiyotiga murojaati, xususan, “Fuzuliy Bag‘dodiy” maqolasi o‘quvchilarni Fuzuliy hayoti va ijodi bilan tanishtiruvchi, ommaga uning asarlaridan namunalar yetkazuvchi va ozarbayjon mumtoz shoiri uslubida she’rlar yozgan turkistonlik shoirlar to‘g‘risida ma’lumot beruvchi dastlabki manbalardan biri sifatida bugungi kun uchun ham qiymat kasb etadi, albatta.

Maqola boshida eslangan Yunus Maqsudiy kitobida Cho‘lponning Fuzuliyga tegishli maqolasi xususida bir og‘iz gap bor: “Darvoqe, Cho‘lpon Fuzuliy she’riyatining chin oshiqlaridan edi. Uning xalq orasida Navoiy kabi mashhurligini e’tirof etib, “Fuzuliy pichinglari” degan bir maqolasida o‘zining fikrlarini bildiradi”. Yunus ota Cho‘lpon maqolasidan kichik ko‘chirma ham beradi. Ammo taxmin qilib, bu maqola 1938-yilda nashr bo‘lganini aytadi. Maqolaning to‘liq matni yaqinda topildi. Cho‘lponning “Fuzuliy pichinglari” maqolasini Iskandar Madg‘oziyev “Guliston” jurnalining 1935-yil 10-sonidan qayta nashrga tayyorlab, “Sharq yulduzi” jurnalida e’lon qildirdi. Adabiyotshunos Dilmurod Quronov “Cho‘lpon Fuzuliy haqida” degan maxsus o‘ngso‘zida ushbu manbaga “...Cho‘lponning ulug‘ ozarbayjon shoiri bilan ma’naviy aloqalari haqidagi tasavvurlarimizni boyitadi”, deb baho berdi.

Xullas, o‘zbek jadid ziyolilari muhitida Fuzuliy asarlari o‘qildi, shu bilan birga, “Fuzuliy Bag‘dodiy”, “Fuzuliy pichinglari” kabi maqolalarda maxsus adabiy-nazariy tahlillar qilindi. Shu zaylda jadid ziyolilari ulug‘ ozarbayjon shoiri ijodining qadr topishi va o‘zbek xalqi ichida ommalashuvida o‘ziga xos ulkan hissa qo‘shdilar.

Bahodir KARIMOV,
filologiya fanlari doktori,
professor

XOTIRA AZIZ

(Davomi. Boshlanishi o‘tgan sonlarda).

Rahimov Umar – 1880-yili Qashqadaryo okrugi Imom Yoqub qishlog‘ida tug‘ilgan. “Milliy ittihod” aksilinqilobiy tashkilotining sobiq a’zosi. Aholi orasida millatchilik targ‘iboti olib borganlikda, SSSRdagi ocharchilik haqida mish-mishlar tarqatganlikda, xalq dushmanlarini maqtaganlikda ayblangan. Hibsga olingan vaqtda xizmatchi bo‘lgan.

Xonto‘rayev Qori Iso – 1884-yili Bauman rayoni Sabzikor qishlog‘ida tug‘ilgan. “Milliy ittihod” tashkilotining sobiq a’zosi. Hibsga olingan vaqtda o‘qituvchi bo‘lgan. Aholi orasida aksilinqilobiy targ‘ibot olib borganlikda, ishonuvchan musulmonlarni birlashib, sovet hokimiyatiga qarshi kurashishga chaqirganlikda, xalq dushmanlarini maqtaganlikda ayblangan.

QATAG‘ON QURBONLARI

Akbarov Abdukarim – 1907-yili Buxoro shahrida tug‘ilgan. “Milliy ittihod” tashkilotining sobiq a’zosi, sudlangan. Hibsga olingan vaqtda hizmatchi bo‘lgan. 2334-sonli ish bo‘yicha 10 yil mehnat-tuzatuv lageriga hukm qilingan. Jazo muddati 1937-yil 18-avgustdan hisoblangan. Aholi orasida aksilinqilobiy targ‘ibot olib borganlikda, mavjud tuzumdan noroziligini aytganlikda, ocharchilik va hokimiyat almashinuvi haqida mish-mishlar tarqatganlikda ayblangan.

Mo‘minov Yusuf – 1887-yili Buxoro shahrida tug‘ilgan. “Milliy ittihod” tashkilotining sobiq a’zosi. 5566-sonli ish bo‘yicha 10 yil mehnat-tuzatuv lageriga hukm etilgan. Jazo muddati 1937-yil 29-sentyabrdan hisoblangan. Aholi orasida doimiy ravishda aksilinqilobiy targ‘ibot olib borganlikda, xalq dushmanlarini maqtaganlikda ayblangan.

Abdurahmonov Sharipjon – 1884-yil Buxoro shahrida tug‘ilgan. “Milliy ittihod” tashkilotining sobiq a’zosi. 5569-sonli ish bo‘yicha 10 yil mehnat-tuzatuv lageriga hukm etilgan. Jazo muddati 1937-yil 27-avgustdan hisoblangan. Aholi orasida mag‘lubiyatchilik, aksilinqilobiy targ‘ibot olib borganlikda, xalq dushmanlarini maqtaganlikda ayblangan.

Nigmatullayev Izzatulla – 1888-yili Buxoro shahrida tug‘ilgan. “Milliy ittihod” tashkilotining sobiq a’zosi. 2223-sonli ish bo‘yicha 10 yil mehnat-tuzatuv lageriga hukm etilgan, jazo muddati 1937-yil 19-avgustdan hisoblangan. Aksilinqilobiy targ‘ibot olib borganlikda, SSSRdagi ocharchilik xaqida mish-mishlar tarqatganlikda ayblangan. Hibsga olingan vaqtda aniq mashg‘uloti bo‘lmagan.

Boyxonboyev Ergash – 1900-yili Namangan shahrida tug‘ilgan. 1921-yildan “Milliy ittihod” tashkilotining a’zosi, qo‘rboshi Omonpolvonning aloqa bog‘lovchisi sifatida ayblangan. Ikromov va Boltaboyevning alohida ko‘magidan foydalangani uchun 10 yil mehnat-tuzatuv lageriga hukm etilgan. Jazo muddati 1937-yil 8-noyabrdan hisoblangan.

Niyozov Husanxon – 1898-yili Andijon shahrida tug‘ilgan. Hibsga olingan paytda xizmat joyi aniq emas. “Milliy ittihod”ning Andijon bo‘limi raisi bo‘lgan. U tergovda shunday javob bergan: “Men 1919-yildan 1920-yil oxirigacha “Milliy ittihod” tashkilotining a’zosi bo‘lganman. Bu tashkilotning markazi Toshkent shahrida, rahbari esa Munavvar qori bo‘lgan. Bu davrda men Andijonda yashardim, bu yerda turk zobiti Sulaymon Samay bilan tanishib qolgan edim. U Andijon shahriga 1919-yil oxirlarida “Milliy ittihod”ni tashkil etish uchun kelgandi. Bu yillari men 6-son maktabda o‘qituvchilik qilardim va tabiiy fanlardan dars berardim”. 1942-yil 29-aprelda SSSR Oliy sudining harbiy kollegiyasi Husanxon Niyozov ishini ko‘rib chiqib, unga berilgan otuvni bekor etib, 10 yil qamoq jazosi bilan almashtirishga hukm qilgan.

So‘fizoda (Muhammadsharif Egamberdi o‘g‘li) – Namangan viloyati Chust shahrida 1880-yil 29-yanvarda tug‘ilgan. O‘zbekiston xalq shoiri (1926), ma’rifatparvar murabbiy. 1919-yilgacha muhojirlikda yashagan. 1919-yildan 1922-yilgacha VKP(b) a’zosi bo‘lgan, undan o‘z ixtiyori bilan chiqib ketgan. “Milliy ittihod” aksilinqilobiy tashkiloti a’zosi bo‘lgan. Unga muhojirotdan kelgach, “chet el razvedkasi topshirig‘iga ko‘ra “Milliy ittihod” aksilinqilobiy tashkilotiga kirgan, faol aksilinqilobiy faoliyat olib borgan, bosmachilikni qo‘llab-quvvatlagan, shaxsan o‘zi yozgan aksilinqilobiy she’rlarini tarqatgan”, degan ayblar qo‘yilgan va shu to‘qima ayblar asosida qatl etilgan.

To‘raqulov Orziqul – 1888-yili Andijon shahrida tug‘ilgan. “Milliy ittihod”ning sobiq a’zosi. 1933-yili NKVD organlari tomonidan xorijga qochib ketishni tashkil etgani uchun hibsda 9 oy yotgan. Qamoqqa olinganda maktabda o‘qituvchi bo‘lgan. Sovet hokimiyatiga qarshi kurashganlikda, panislomizm g‘oyasini tarqatganlikda ayblanib, O‘zSSR Jinoyat Kodeksining 66-modda 1-bandi, 67-moddasi bilan 10 yil qamoq jazosiga hukm etilgan.

Rahimov Alijon – 1909-yili Andijon shahrida tug‘ilgan. Aksilinqilobiy “Milliy ittihod” tashkiloti rahbariyati yig‘inlarida ishtirok etgan. Sovet hukumatining tadbirlariga qarshi dushman munosabatda bo‘lgan. Maktablarga man etilgan aksilinqilobiy darsliklar tarqatganlikda, xalq dushmani F.Xo‘jayev foydasiga aksilinqilobiy targ‘ibot olib borganlikda ayblanib, O‘zSSR Jinoyat Kodeksining 66-modda 1-bandi, 67-modda bilan 10 yil qamoq jazosiga hukm etilgan.

Rustambek SHAMSUTDINOV,
tarix fanlari doktori,
professor,
Nigoraxon AKBAROVA,
ilmiy xodim

(Davomi kelgusi sonda).

TILBILIM

EFIRDA DAVLAT TILI DARSLARI

Ma’lumotlarga ko‘ra, bugungi kungacha dunyoda 30 mingga yaqin til ma’lum muddat muomalada bo‘lib, millatlar, elatlar qorishuvi sababli izsiz yo‘q bo‘lib ketgan. Ayni paytda Yer yuzida mavjud 6 mingga yaqin tilning yarmida 10 ming nafardan kam, chorak qismida esa atigi ming nafarga yaqin odam gaplashadi. Hatto ayrim tillar bor-yo‘g‘i yuz chog‘li odamga xizmat qilayotganiga nima deysiz!

Shubhasiz, o‘zligini, o‘zini anglagan har qanday millat ona tilini himoya qilish va uni rivojlantirishga intiladi. Bunday ezgu yo‘lda turli usul va vositalarni ishga soladi. Jumladan, ayni paytda turli mamlakatlarda istiqomat qilayotgan 50 milliondan ortiq kishi so‘zlashadigan, dunyodagi eng boy va qadimiy tillardan biri hisoblangan o‘zbek tili ham bundan mustasno emas. Bu borada davlat va hukumat darajasida bir qator samarali ishlar amalga oshirilayotgan bo‘lsa-da, ona tilimiz targ‘iboti va tashviqotini yanada kuchaytirish dolzarb masala hisoblanadi. Shu ma’noda, O‘zbekiston Milliy teleradiokompaniyasining “Dunyo bo‘ylab” telekanalida o‘zga tilli yurtdoshlarimizga mo‘ljallangan “Экспресс-методика. Изучение узбекского языка” (“Tezkor-metodika. O‘zbek tilini o‘rganish”) dasturini efirga uzatish yo‘lga qo‘yilgani ona tilimiz ravnaqi yo‘lidagi muhim tashabbuslardan biri bo‘lgan, deyish mumkin.

Mamlakatimizda 130 dan ortiq millat va elat vakillari istiqomat qilishini e’tiborga olsak, o‘zbek tilini o‘rganishga ishtiyoqmand aholi uchun mazkur dasturning qay darajada zarurligi yaqqol namoyon bo‘ladi.

– Men bir necha yillardan beri o‘zga tilli millat vakillariga o‘zbek tilidan saboq berib kelaman, – deydi mazkur dasturning boshlovchisi, mohir o‘qituvchi Irina Zelenova. – O‘zim O‘zbekistonda ulg‘aygan bo‘lsam-da, rus tilida ta’lim olganman, oilamizda ham asosan shu tilda gaplashar edik. Keyinchalik o‘qituvchilik kasbini tanlagach, o‘zbek tilini o‘rganishim zarurligini angladim. Shu tariqa ustozlarim va turli kitoblar yordamida til o‘rganishga kirishdim. Albatta, bu oson bo‘lmadi. Ko‘pchilik o‘zga tilli millat vakillari qatori talaffuzda va gap qurilishidagi katta farq ancha qiyinchiliklar tug‘dirdi. Ammo tinimsiz o‘qib, yodlab, o‘rganib olganimdan so‘ng o‘zbeklarga rus tilini, boshqa tilli odamlarga o‘zbek tilini o‘rgata boshladim. Mamlakatimizda va xorijda o‘zbek tilini o‘rganishga talab ayniqsa, keyingi yillarda juda oshib ketdi. Mana shunday sharoitda “Dunyo bo‘ylab” telekanalida tashkil qilingan o‘zbek tiliga oid saboqlar katta samara berishiga ishonaman. Bu darslarni nafaqat O‘zbekistonda, balki dunyoning boshqa joylarida turib ham bemalol tomosha qilish mumkin.

Birlashgan Millatlar Tashkiloti ma’lumotiga ko‘ra, dunyo bo‘yicha mavjud tillarning yarmi XXI asr oxiriga borib butunlay yo‘q bo‘lib ketish xavfi ostida qolmoqda. Bunga ikkita katta sabab ko‘rsatilmoqda. Asosiy omil – o‘sha tilning internet tiliga aylanmagani bilan bog‘liq bo‘lsa, ikkinchidan, ular o‘zidan yuqoriroq mavqega ega bo‘lgan tillarning “soyasi”da qolib ketmoqda. Bugun axborot texnologiyalari va raqamlashtirishning barcha sohalarga jadal kirib borishi, muayyan tillarning internet tarmoqlarida axborot almashinuvining eng maqbul usuliga aylanayotgani boshqa tillarning rivojlanishi uchun jiddiy to‘siqlarni yuzaga keltirmoqda. Shunday ekan, har qanday tilning yashab qolishini ta’minlash uchun birinchi galda ularning internet tarmog‘ida faolligini oshirish, turli mobil ilovalar, dasturlar vositasida bunday tillarni oson o‘rgatish usullarini joriy qilish lozim. “Tezkor-metodika. O‘zbek tilini o‘rganish” ko‘rsatuvi ham ayni shunday dastur va metodika asosida tayyorlanmoqda. Dasturda nazariya, amaliyot va doimiy takrorlashlarni o‘z ichiga olgan eng ishonchli va samarali usullardan foydalanilmoqda. Dastur metodikasi o‘zbek tilini onlayn tarzda o‘rgatuvchi eng yirik “Uzbek-online” maktabi mutaxassislari bilan hamkorlikda ishlab chiqilgan. O‘qitish o‘zbek tilida ko‘p qo‘llaniladigan so‘zlar lug‘atiga asoslangan holda, doimiy takrorlash usuli yordamida olib boriladi.

– Ko‘rsatuvda foydalanilayotgan dasturning mobil ilovasi ham mavjud, u iZi deb nomlanadi, – deydi ushbu loyihaning hamkori Farhod Obidxonov. – Mazkur dastur uch qismdan iborat bo‘lib, o‘rganuvchilar mashg‘ulotning birinchi qismida bir nechta yangi so‘zlar bilan tanishadi. Har bir so‘z uni ifodalovchi rasm, assotsiativ matn va so‘zning to‘g‘ri talaffuzini o‘rgatadigan o‘ziga xos jamlanmaga ega. So‘zlarni eslab qolish alohida takrorlashlar asosiga qurilgan. Mashg‘ulotning ikkinchi qismida yangi grammatik qoidalar tanishtirilsa, uchinchi bosqich amaliy mashg‘ulotlarni o‘z ichiga oladi.

Ma’lumot o‘rnida aytish joizki, har biri 10-15 daqiqadan iborat bo‘lgan 80 qismli ushbu dastur haftaning seshanba, payshanba, shanba kunlari soat 17.45 da efirga uzatilib, dushanba, chorshanba, juma kunlari soat 11.00 da takroran namoyish qilinmoqda.

– Men shu paytgacha o‘zbek tilini o‘rganishga qiynalar edim, – deydi dasturda ishtirok etayotgan yurtdoshimiz Sergey Stopnevich. – Biron tilni ko‘chako‘yda, jonli muloqot asosida o‘zlashtirish boshqa, alohida metodika asosida o‘rganish umuman boshqa ekan. Televideniye orqali efirga berilayotgan ushbu ko‘rsatuv davlat tilimizni oson va tez o‘rganishimda katta yordam bermoqda. O‘zbek tilini mukammal bilish menga o‘z sohamda yanada samaraliroq faoliyat ko‘rsatish, hamkasblarim bilan erkin muloqot qilish va yanada ko‘proq do‘stlar orttirish imkonini berishiga ishonaman. O‘ylaymanki, O‘zbekistonda yashab, faoliyat ko‘rsatadigan har qaysi millat vakili davlat tilini yaxshi bilsa, buning samarasini tez orada his qiladi.

Bir so‘z bilan aytganda, O‘zbekiston Milliy teleradiokompaniyasi tashabbusi bilan tashkil qilingan “Tezkor-metodika. O‘zbek tilini o‘rganish” dasturi O‘zbekistonda yashab faoliyat ko‘rsatayotgan o‘zga millat vakillarining davlat tilini o‘rganishida beminnat ko‘makchi vazifasini o‘tashiga ishonamiz.

Bekzod IBROHIMOV,
jurnalist

TARMOQLARDA NIMA GAP?

HAYO



Aleksandr Blok Anna Axmatovadan “Sizga Tolstoy xalal bermaydimi?” deb so‘raydi va zum o‘tmay o‘zi javob beradi: “Menga esa xalal beradi”.

Ulug‘ Tolstoyning nigohi, haybati atrofidagi ijodkorlarni doim ana shunday “titratib” turgan. Men har safar Shavkat Rahmonni o‘qiganda Blokning holiga tushaman.

Yozayotganlarimning xomligidan yoki yetarlicha jon berib yozolmayotganimdan uyalib ketaman. Sevimli ijodkorlarim ko‘p, lekin negadir aynan Shavkat Rahmondan hayiqaman. Uning adabiyotimizda borligi menga ijobiy ma’noda “xalal beradi”. Yengil, patirlatib yozib tashlashga qo‘ymaydi. Yo‘q, erkinligimni bo‘g‘maydi, oldimdagi burchni har daqiqa anglatib turadi. Ijodkor do‘stlarimdan: “Sizda ham shunday shaxs bormi?” deya so‘ragim, xayolan u bilan ro‘baro‘ kelganda qay ahvolga tushishlarini bilgim keladi. Bu qo‘rquv ham, hasad ham emas! Bo‘lar-bo‘lmas tuyg‘u, xayol, orzu, fikrlarni she’r qilib tashlashdan tiyib turadigan kuch. Tengdoshlar ijodini kuzata turib ba’zi ijod namunalarini o‘qib, shuni yozmasa ham bo‘lardi-ku, deb yuboraman achchiqlanib va bilamanki, o‘zimda ham shunday hubob mashqlar talaygina topiladi. “Kitobga tayyorlayotganda yaxshilab saralayman”, deya taskin beraman ko‘nglimga. Yashin tezligida qarama-qarshi o‘y keladi – ulgurmasam-chi? Bu yomon. Rauf Parfining “Turkiston ruhi” kitobini o‘qiyotib, shoirning ilk mashqlarini bekor tiqishibdi, deya to‘plovchilardan jahlim chiqqan. Uning o‘zi tartib bergan “Sakina” saylanmasida biror ortiqcha she’rga ko‘zing tushmaydi axir. Bu borada ham Shavkat Rahmonga qoyil. U menimcha bo‘sh tugul, o‘rtamiyona she’rlarini ham o‘limidan keyin birov topib, bayroq qilib chopmasligi uchun joyida yo‘q qilib yuborgan. Adabiyotshunoslar Abduvali Qutbiddin birinchi she’ridanoq professional shoir sifatida tanildi, u taqlid bosqichini o‘tamadi, deb yozishadi. Ammo men bilamanki, Abduvali aka ham ijodga, she’rga juda hurmat bilan qaragan va o‘ziga talabi kuchli bo‘lgani sabab yuzta mashqidan o‘ntasini e’lon qilgan, natijani esa ko‘rib turibsiz. Bugun yoshi bir joyga borib qolgan katta shoirlarimizning qator chiqayotgan saylanmalarini varaqlarkanman, nahot ularning meniki kabi “Shavkat Rahmon”i yo‘q, deb xunobim oshadi. Chunki kitobga zarracha tartib berilmagani, she’rlar o‘ta jiddiy nigohdan o‘tkazilmagani shundoq sezilib turadi. Bunga sabab oxirgi o‘ttiz-qirq yilda adabiyotga hech kim e’tibor bermay qo‘ygani. Avval biror jurnalda bosilgan she’r, o‘quvchi-yu yozuvchilar orasida po‘stagi qoqib tahlil qilingan. Keyin bu jarayon “vafot etdi”. Yuqorida tilga olgan qator saylanmalar chiqarayotgan ijodkorlarimizni birov tanqid qilmaydi, qaytaga ulardan aslo xato qilmas, har bir yozgani san’at darajasidagi mukammal shaxs yasab olishdi va bunga “ulug‘ ijodkor” ham ko‘nikib qoldi. To‘g‘rida, qarasa, hech kim uyaltirmayapti – qarsak, qarsak. Urto‘qmoq qiladigan keskir do‘stlari dunyodan o‘tib ketgan. Shunday vaziyatda bekam-u ko‘stligiga o‘zi ham ishonib qoladi-da. Men hozir hammamiz sevib o‘qigich katta shoirlardan misol keltirdim, pachoqlaridan emas. Shuning uchun ham ichim kuyadi-da...

Xullas, “ulgurmay qolish” hadigidan qutulish uchun shoir yozganlarini har kuni saralab borishi kerak. Chexov: “Zo‘r novellasini xalqqa havola qilgan yozuvchi emas, o‘rtamiyona asarini olib qololgani yaxshi yozuvchidir”, deganida butunlay haq edi. “Mening har nafasim – she’r!” degan havoyi fikrdan qancha erta qutulsak, shuncha foyda. Yana haligi savol: sizga Shavkat Rahmon xalal bermaydimi?

JONTEMIR

E’TIROF

MEN O‘ZBEK O‘G‘LIMAN!

Germaniyaning mashhur “Bavariya” futbol klubi qaysi yosh o‘zbek futbolchisiga xaridor bo‘layotganidan xabaringiz bormi? Rossiya premyer-ligasida o‘tkazilayotgan “Yil kashfiyoti” tanlovida g‘oliblikka eng asosiy nomzod kimligini eshitdingizmi? Atigi yarim yil ichida transfer narxi o‘n karra oshgan azamat futbolchi kim? Ha, topdingiz, bu o‘zimizning Abbosbek Fayzullayev!

Bugun Sayxunobod tumanining Guliston mahallasida istiqomat qiladigan Qodirovlar oilasini tanimagan sirdaryolik yo‘q hisobi. Olti aka-ukaning og‘zibirligi, to‘y-ma’raka, yaxshi-yomon kunlarda bir-biriga yelkadoshligi ko‘pchilikning havasini keltiradi. Ularni bahamjihat qilgan mashg‘ulotlardan biri sport, aniqroq aytsak, bugun milliardlar o‘yiniga aylangan futbol sanalib, ayniqsa, xalqaro maydonlarda to‘p surayotgan terma jamoamizga butun oila jamuljam bo‘lib ishqibozlik qilishadi.

Ulardan biri Said aka Qodirov turmush o‘rtog‘i Gulchehraxon opa bilan to‘rt farzandni el havasidagi insonlar qilib voyaga yetkazdi. Katta o‘g‘il – noyob iste’dod sohibi bo‘lmish Abbosbekni bugun dunyo futbol muxlislari e’tirof etmoqda.

O‘zbek yoshlarining fax-u iftixoriga, kattalarning umid-u ishonchiga aylangan Abbosbek ayni paytda 20 yoshda. U dastlab tumandagi 26-umumta’lim maktabida saboq olarkan, darsdan bo‘sh paytlari mahalladosh o‘rtoqlari bilan jamoa-jamoa bo‘lib futbol o‘ynardi. Boladagi ayricha iqtidorni payqagan jismoniy tarbiya fani o‘qituvchisi Ibrohim Ummatov o‘sha paytdayoq “Hali bu bola dunyoga dovrug‘i ketgan zo‘r futbolchi bo‘ladi”, deya bashorat qiladi.

Abbosbekdagi bu sehrli sport turiga qiziqish kuchli ishtiyoqqa aylanib, butun fikr-u zikrini egalladi. Hatto kechalari oy yorug‘ida bir o‘zi mashq qiladigan, jarima to‘plarini murakkab vaziyatlardan darvozaga yo‘llash ustida ishlaydigan bo‘ldi. Gulchehra opa hayallab qolgan o‘g‘lini qayerdan topishni aniq bilardi. Bolaning futbolga mehri bo‘lakcha ekanini payqagan tog‘asi uni Toshkentdagi “Paxtakor” futbol akademiyasiga yetaklab keldi. Endigina uchinchi sinfni tugatgan bolakay mashg‘ulotlarga muntazam qatnab, o‘zini tobladi, mashaqqatli yo‘ldan aslo chekinmadi. Bu yerda u o‘zbek futbolining afsonalaridan biri hisoblangan Mixail Anning farzandi Dmitriy An murabbiyligida maydonni ko‘ra bilish, to‘pni aniq nuqtaga yo‘naltirish, mo‘ljalni to‘g‘ri olish, chapdastlik, chaqqonlik, tegishli hududni himoyalash kabi futbol qoidalarini astoydil o‘zlashtirdi. Abbosbekda amaliy tajriba ko‘plab jamoaviy musobaqalarda ishtiroki orqali ortib bordi.

Qobiliyat hammaga beriladi, lekin uni rivojlantirish har kimning o‘z qo‘lida. Inson hayotda qaysi sohada bo‘lmasin, yutuqqa erishar ekan, uning muvaffaqiyatlari zamirida iqtidori ustida tinimsiz ishlash zahmati yotadi. Abbosbek ana shu zahmat ortidan muxlisu mutaxassislar nazariga tushdi. Dastlab o‘smirlar, keyin yoshlar terma jamoasiga, so‘ng “Paxtakor” jamoasining o‘rinbosarlari tarkibidan joy oldi.

2021-yilning 6-may kuni superligada “Paxtakor” jamoasi safida “Turon” klubiga qarshi o‘yinda debyutini namoyish qilgan bo‘lajak yulduz bir yil o‘tib, “Bunyodkor” jamoasi bilan bo‘lib o‘tgan bahsda raqib darvozasiga ilk golini kiritdi. 2023-yilda esa 19-20 yoshli futbolchilar o‘rtasida bo‘lib o‘tgan Osiyo chempionatida “eng yaxshi yosh futbolchi” degan e’tirofga munosib topildi va yoshlar terma jamoasining yetakchisi sifatida tan olindi.

– Argentinada bo‘lib o‘tgan jahon chempionatida muxlislar qatorida o‘g‘limning o‘yinlarini ko‘zimda yosh bilan tomosha qildim. Bolamning ortidan dunyo kezganim bir to‘lqinlantirsa, uning o‘yinini, har bir harakatini manaman degan futbol magnatlari kuzatayotganini o‘ylab o‘n karra hayajonlandim, – deydi Said aka.

2023-yilning yozida Rossiyaning dongdor SSKA klubiga 500 ming yevro evaziga o‘tgan mohir futbolchining hozirgi transfer narxi “Transfermarkt” portali ma’lumotiga ko‘ra, 5 million yevroni tashkil qilmoqda.

Hamyurtimiz Rossiya premyer-ligasida yarim himoyachi sifatida muvaffaqiyatli o‘yin namoyish qilib, shu paytgacha 2 ta gol, 9 ta golga uzatma qayd etdi va ommaviy axborot vositalari hamda tomoshabinlar o‘rtasidagi so‘rovga asosan to‘rt oy ketma-ket jamoaning eng yaxshi futbolchisi sifatida e’tirof etildi. Muxlislar yoqimtoyiga aylangan Abbosbek Fayzullayevni sport sharhlovchilari “Yuzi yorug‘ bola”, deb ta’riflashadi. Darhaqiqat, istarasi issiq hamyurtimiz maydonga tushsa, uning kutilmagan fintlari, driblinglari tufayli o‘yin fayzli tus oladi.

Abbosbekning tirishqoqligi va mehnatsevarligi uning muvaffaqiyatlariga asos bo‘lgani haqiqat. Qolaversa, futbolchining bir necha xorijiy tilda erkin so‘zlasha olishi, ravon nutqi, keng dunyoqarashi ham tahsinga sazovor. Futbolchining otasi Said aka irrigatorlik kasbini tanlab, shu sohada faoliyat olib borgan bo‘lsa-da, aytganimizdek, ashaddiy futbolsevarlardan. Terma jamoamiz ishtirokidagi g‘alabali o‘yinlar xalqimizga zavqu shavq bilan birga faxr-u iftixor ham baxsh etadi. Demak, futbol shunchaki sport emas, milliy g‘ururni shakllantiruvchi omillardan biri deb sanash mumkin. Ana shu tushunchalarni o‘g‘liga murg‘akligidan singdirgan Said aka ayni paytda Qatarda 23 yoshgacha bo‘lgan terma jamoalar o‘rtasida o‘tkazilayotgan Osiyo kubogi bahsini ham katta umid va ishonch bilan kuzatyapti. Abbosbek kuni kecha Rossiya chempionatidan Qatarga yetib kelib, jamoaga qo‘shildi. Musobaqani chorak final bahslaridan boshlashi kutilayotgan hamyurtimiz guruhning so‘nggi bosqich o‘yiniga ham ulgurib, Vetnam termasi ustidan qozonilgan yirik hisobdagi g‘alabaga o‘z hissasini qo‘shdi va shu tariqa Olimpiya terma jamoamiz guruhda birinchi o‘rin bilan keyingi bosqichga yo‘l oldi. Abbosbek nafaqat jamoasining, balki butun turnirning eng nomdor o‘yinchilaridan biri sifatida ishonchli o‘yinlari orqali jamoadoshlari bilan Vatanimizga Osiyo kubogi hamda Olimpiada yo‘llanmasi olib qaytishiga ishonamiz.

Bo‘sh kelma, Abbos!

A.NURBOYEV,
F.TOSHMATOV



Jadid
adabiy, ilmiy-ma’rifiy va ijtimoiy haftalik gazeta

Muassislar:

O‘ZBEKISTON YOZUVCHILAR UYUSHMASI

RESPUBLIKA MA’NAVIYAT VA MA’RIFAT MARKAZI

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI FANLAR AKADEMIYASI

MILLIY MASS-MEDIANI QO‘LLAB-QUVVATLASH VA RIVOJLANTIRISH JAMOAT FONDI

“SHAHIDLAR XOTIRASI” JAMOAT FONDI

Bosh muharrir:
Iqbol Mirzo

Bosh muharrirning birinchi o‘rinbosari:
Humoyun Akbarov

Navbatchi muharrir:
Muyassar Ibrohimova

Sahifalovchi:
Erkin Yodgorov
Nigora Tosheva

Tahririyatga yuborilgan maqolalar muallifga qaytarilmaydi va ular yuzasidan izoh berilmaydi.

Gazeta 2023-yil 26-dekabrda O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan 195115 raqam bilan ro‘yxatga olingan.
Kirill yozuvidagi adadi – 6208
Lotin yozuvidagi adadi – 11958
Media kuzatuvchilar – 9648
Buyurtma: G – 440.
Hajmi: 4 bosma taboq, A2.
Nashr ko‘rsatkichi – 222.
Tashkilotlar uchun – 223.
1 2 3 4 5 6



Manzilimiz:
Toshkent shahri,
Shayxontohur tumani,
Navoiy ko‘chasi, 69-uy
Telefonlar:
Qabulxona: (71) 203-24-20
Devonxona: (97) 745-03-69
jadidgzt@mail.ru (71) 203-24-17
Jadid_gazetasi@exat.uz

“Sharq” nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosmaxonasi.
Bosmaxona manzili:
Toshkent shahri,
Buyuk Turon ko‘chasi, 41-uy.

Bosishga topshirish vaqti: 21:00
Bosishga topshirildi: 20:10
Sotuvda narxi erkin.